O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix kafedrasi

Ermatov Shohruh Valievichning

5120300- tarix ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun

«Qadimgi Mesopatamiyada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot» mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY IShI

Rahbar: t.f.n., dotsent O.R.Nazarov

Guliston - 2017

M U N D A R I J A

Kirish……3

Adabiyotlar tahlili…… 9

Tanlangan ob'ektlar (qo'yilgan masala va muammolar)
va tadqiqot metodlari……11

1-bob. Mesopotamiyadagi ilk shaharsozlik va davlatchilik asoslari……12

1.1. Shimoliy Mesopotamiyadagi Xassun,Samarra, Xalaf va El-Ubeyd madaniyatlari……12

1.2. Assiriya va Qadimgi Bobil podshohligining gullab-yashnashi va inqirozi……

2-bob. Akkad, Shumer va Amoriylar davrida Mesopotamiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol……

2.1. Akkad, Shumer podshohliklari davrida qadimgi Mesopotamiya……

2.2. Amoriylar hukmronligi davrida Mesopotamiya……

3-bob. Qadimgi Mesopotamiya tsivilizatsiyasining jahon tsivilizatsiyasi tarixidagi urni……

3.1. Mesopotamiya xalqlarining madaniyati……

3.2. Mesopotamiyada ilmiy bilimlar va shaharsozlikning rivojlanishi……

3.3. Mesopotamiya tsivilizatsiyasining jahon tarixidagi o'rni……

Xulosa va tavsiyalar……

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati……

Ilovalar……

K I R I Sh

Mavzuning dolzarbligi. Demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari asosida rivojlanish va taraqqiy etish yo'liga dadil qadam qo'yib, o'z milliy davlatchiligini qayta tiklayotgan kelajagi buyuk mamlakatimiz bu borada umumbashariy taraqqiyotga, boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, ayniqsa, ijtimoiy qadriyatlarga suyanmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk mamlakatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak» [2, 6-b.]. Bu borada yosh avlodga boshqa dunyoviy bilimlar qatori tarixiy bilimlarni singdirish, rivojlantirish va takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ulkan tarix tajribasini o'rganish – hozirgi davrda ro'y berayotgan voqea-hodisalar mohiyatini tushunishga yordam beradi. Dunyoning turli burchaklarida yashaydigan xalqlarning tarixini turli davrlarda, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda erishgan yutuqlari hamda taraqqiyot bosqichlariga ko'tarilishini tsivilizatsiya tushunchasi o'zida aks ettiradi. Bu taraqqiyot bosqichi insoniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi, jamiyatning rivojlanish darajasi, moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishi, qabilalar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlar bilan izohlanadi.

Jahon xalqlari o'tmish tarixida Yaqin Sharq xalqlari ilk sinfiy jamiyat va davlatchilik tizimini shakllanishida asosiy o'rinlardan birini egallagan. Qadimgi Sharq tsivilizatsiyasi rivojlanishida Mesopotamiya ilk davlatlarini vujudga kelishi va taraqqiyoti, buyuk madaniyatga ega bo'lishi muhim o'rin tutadi.

Mesopotamiya (Ikki daryo oralig'i) deb qadimgi yunon geograflari Frot va Dajla oralig'idagi tekis vodiyni ataganlar. Bu vodiy bu ikki daryoning quyi va o'rta oqimida joylashgan edi. Shimoldan va sharqdan Mesopotamiya Arman va Eron

tog’ tizmalari bilan o’rab olingan, g’arbda Suriya, Arabistonning cho’l va yarim sahrolari bilan chegaradosh bo’lgan. Janubda Fors ko’rfazi suvlari bilan yuvilgan.

Shimolda Armaniston tog’laridan janubda Fors ko’rfazigacha, sharqda Eronning tog’li viloyatlaridan g’arbda Suriya-Mesopotamiya dashtigacha bo’lgan hududda qadimgi yunon geograflari tomonidan Mesopotamiya deb nomlangan hudud yastangan bo’lib, buning ma’nosi «ikki daryo oralig’i»dir (Frot va Dajla daryolari). Hozirgi kunda bu asosan Iroqning hududiga kiradi [28].

Frot va Dajla Armaniston tizma tog’idan boshlanib, Fors ko’rfaziga quyiladilar. Qadimda ikkita alohida irmoq bilan quyilgan bo’lsa, bugungi kunda bitta keng irmoq - Shatt-al-Arab quyiladi.

Tog’li soylar suvlaridan serob bo’lgan daryolari yuqori oqimlarida Kichik Osiyodagi Tavr va Antitavr (Frot daryosi) tog’ tizmalarini va tog’li Qurdistonni (Dajla), o’rta va quyi oqimida esa vodiy bo’ylab oqadilar. Fors ko’rfaziga quyilish joyida oz qolganda esa ular yassi hudud bo’ylab toshib, botqoqlangan tuproqni tashkil qiladilar. Bu erni Qadimgi Mesopotamiyaliklar «Achchiq daryo» deb ataganlar. Daryolarning bir qator irmoqlari mavjud: Frotning eng yirik irmoqlari – Balix va Xabur, Dajlaniki esa – Yuqori va Quyi Zab, Diyala. Ilgari Dajla Frotdav sersuvroq edi va juda tez oqardi. Frot va Dajlaning toshishlari Armaniston tizma tog’ida qorlarning erishi bilan bog’liq. Odatda ularning toshishi mart-aprel oylariga to’g’ri keladi. iroq Frot va Dajla Nildan farqli o’laroq turli iqlimiy zonalardan oqib o’tishi tufayli, tog’lardagi qorlar har doim bir vaqtda erimas va toshqinlar muddati ham har yili turlicha bo’lishi mumkin edi.

Eng qadimgi tsivilizatsiya taraqqiyotining markazi ushbu hududning janubiy qismida - qadimgi Bobilda joylashgan edi. Shimoliy Bobil Akkad deb atalardi, janubiysi esa – Shumer deb atalgan. Shimoliy Mesopotamiyada, tog’ oldi hududlarda Assiriya joylashgan edi. Er.av. IV mingyillikka kelib Mesopotamiyaning chekka janubida dastlabki shumer manzilgohlari paydo bo’ladi. Ayrim olimlarning qayd etishicha, janubiy Mesopotamiyaning eng dastlabki aholisi shumerlar bo’lmagan, chunki Frot va Dajla daryolari pasttekisliklarida

mavjud bo'lgan ko'plab tarixiy toponimik nomlar shumer tilida emas, balki boshqa tildadir. Taxminlarcha, shumerlar Janubiy Mesopotamiyaga kirib kelishganda, bu erda ular shumer va akkad tilidan farq qiladigan tilda so'zlashuvchi qabilalarni uchratganlar va ulardan qadimgi toponimlarni o'zlashtirib olganlar [37, 89-b.]. Asta-sekin shumerlar Mesopotamiyaning butun hududini egallab olganlar. Shumerlar Mesopotamiyaga qaerdan kirib kelgani hanuz aniqlanmagan. Shumerlar o'rtasida tarqalgan rivoyatlarga ko'ra, ular Fors ko'rfazi orollaridan kelgan ekanlar. Shumerlarning tili boshqa tillar bilan aloqada bo'lmagan. Olimlarning shumer tilining turkiy, kavkaz, etrusk va boshqa tillar bilan qarindoshligini aniqlashga bo'lgan urinishlari ijobiy natijalar keltirmadi.

Mesopotamiyaning shimoliy qismida er.av. III mingyillik birinchi yarmidan semitlar yashaganlar. Ular qadimgi Old Osiyo va Suriya dashtining chorvador qabilalari bo'lgan. Mesopotamiyada o'rnashib olgan semit qabilalarining tili akkad tili deb ataladi. Demak, mesopotamiyaliklarda qadim zamonlardan beri til va yozuv shakllangan. Bu esa tabiiy qulay shart-sharoitlar bilan birgalikda bu erda istiqomat qilayotgan xalqlarning o'ziga xos madaniyatga ega bo'lishini ta'minlangan. Bundan tashqari shimoliy Mesopotamiyada hozirgi Iroq, Turkiya, Armaniston hamda Eron hududlarida ham eng qadimgi davrlardayoq tsivilizatsiyaviy jarayonlar rivojlanib borgan. Iqlimning qulayligi natijasida bu erlarda qadimgi ovchilik, ziroatchilik, baliqchilik, dehqonchilik va chorvadorlik jamoalari o'z manzilgohlarini barpo etganlar. Jon Mellartning sinxron jadvali asosida keltirsak, Iroqdagi El Ubeyd madaniyati so'nggi xalkolit (mil.av. V ming yillik oxiri -IV mingyilliklarga to'g'ri keladi [56, 15-b.]. shuningdek, Mesopotamiya tsivilizatsiyasi tarixida Qadimg Bobil podshohligi, xususan, Xammurapi hukmronligi davri nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, Xammurapi tomonidan qonun-qoidalar tuzilgan bo'lib, ular mamlakatda joriy qilingan edi. Xullas, bugungi kunda jahon tsivilizatsiyasi tizimida Qadimgi Mesopotamiya tsivilizatsiyasini har tomonlama tadqiq etish, o'rganish va kelajak avlodlar uchun yoritib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Mesopotamiya

tsivilizatsiya jahon tsivilizatsiyalari tarixida alohida o’rin egallab, o’zining qadimiyligi, o’ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Ushbu bitiruv-malakaviy ishda Qadimgi Mesopotamiyadagi Akkad, Shumer, Amoriylar davlatlaridagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahvolni tarixiy-arxeologik manbalar va adabiyotlar asosida ko’rsatib berishni o’z oldimizga maqsad qilib qo’ydik. Shundan kelib chiqib quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- Qadimgi Mesopotamiya tarixiga nazar solib, uning jahon tsivilizatsiyasi tarixidagi o’rnini ochib berish;
- eng qadimgi davrlarda Mesopotamiyada mavjud bo’lgan Xassun, Samara, Xalaf madaniyatlari haqida tushuncha berish;
- El Ubeyd madaniyatining ikki daryo oralig’ida tutgan o’rnini alohida o’rganish;
- Assiriya va Qadimgi Bobil podshohligi davri haqida ma’lumot keltirish,
- Akkad, Shumer va Amoriylar davlatlari davrida Mesopotamiya tarixini tahlil qilish;
- Xammurapi qonunlarining Mesopotamiya tsivilizatsiyasi tarixidagi o’rnini ochib berish;
- Qadimgi Mesopotamiya madaniyati haqida tushuncha berib, uning yutuqlarini ochib berish va jahon tsivilizatsiyasi tarixidagi o’rni to’g’risida to’xtalib o’tishni lozim topdik.

Ishdagi yangilik va erishilgan natijalar. Qadimgi Mesopotamiya davlatchiligining ilk bosqichlari miloddan avvalgi 6-5 mingyilliklarga to’g’ri kelishi haqida dalolat beruvchi Xassun, Samarra, Xalaf, El-Ubeyd madaniyatlari va ularga oid arxeologik daliliy ashyolarni har tomonlama tavsiflash, tahlil qilish va o’rganish qadim dunyo tarixi, qadimgi tsivilizatsiyalar tarixini o’rganishda muhim kasb etadi. Shuningdek, Akkad, Shumer, Amoriylar, Assiriya davlatlaridagi madaniyat tarixi bu davrdla yaratilgan nodir yodgorliklar ahamiyatini ochib

berishga harakat qildik. Qadimgi Mesopotamiyada joriy etilgan Xammurapi qonunlarining o'rni ochib beriladi. Umuman olganda, ma'lumotlarni umumlashtirib, yaxlit bir tizimga keltirishga harakat qildik. Bu haqda o'zbek tilida manba va adabiyotlar yo'q bo'lib, bitiruv-malakaviy ishda keltirilgan ma'lumotlar yangilik hisoblanadi.

Ishning amaliy ahamiyati. Bugungi kunda qadimgi davr, ayniqsa Qadimgi Sharq tarixiga, davlatchilik tarixiga, ilk shahar va davlatlar paydo bo'lishi va shakllanishi muammosiga tarixchi olimlar alohida e'tibor berishmoqda. Shu munosabat bilan jahondagi eng qadimgi tsivilizatsiyalardan biri hisoblangan Mesopotamiya tsivilizatsiyasida muhim o'rin egallagan Akkad, Shumer va Amoriylar davlatlari tarixini tadqiq etish va yosh avlodga etkazish, ularni jahon tarixining yorqin sahifalari bilan qurollantirish, bilimlariga bilim qo'shish muhim ahamiyatga egadir. Zero, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur»[1]. Prezidentimiz I.A.Karimov boshlab bergan tashabbus orqali Vatanimizni mustaqil bo'lishi, respublika xalqini butun jahonga tanitdi. Mana shundan foydalanib, biz ham oldimizga qo'yigan maqsad va vazifalarimizni xolisona fikr orqali bayon etishimiz mumkin.

Ushbu ishni bajarishda «Tarix" kafedrasi, universitet axborot-resurs markazi fondlaridan, dotsent O.Nazarovning shaxsiy kutubxonasidagi kitoblardan, shuningdek, INTERNET ma'lumotlaridan foydalandik.

Ishning tuzilishi. Mazkur bitiruv-malakaviy ish Kirish, adabiyotlar tahlili, tanlangan ob'ektlar va tadqiqot metodlari, asosiy qismning 3-ta bobi, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qadimgi Mesopotamiya tarixiga oid manbalar moddiy madaniyat yodgorliklari, xo'jalik xujjatlari, yuridik xujjatlar, diplomatik xujjatlar, tarixiy mazmundagi yozuv va bitiklar, shumer-akkad tilidagi ezma edgorliklar, antik mualliflarning asarlari hisoblanadi. Ular asosan XX asr boshlari va ikkinchi yarmida rus olimlarining tarjimasi asosida chop etilgan xrestomatiyalarda keltirilgan [38, 67, 68, 69]. Qadimgi Mesopotamiya tsivilizatsiyasini o'rganishda Qadimgi Sharq madaniyati va san'ati tarixiga bag'ishlangan darslik, ilmiy-ommabop nashrlar va monografiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda qadimgi dunyo xalqlarining madaniy taraqqiyotida ro'y bergan asosiy yutuqlar aks ettirilgan. Bir muncha kengaytirilgan ma'lumotlar Qadimgi Mesopotamiya tarixi va madaniyatiga bag'ishlangan maxsus asarlarda keltirilgan. Ular qatoriga E.Klengel-Brandt, I.S.Klochkov, A.L.Oppenxeym, N.D.Flittner kitoblarini kiritish mumkin. Bu mualliflar kitoblarida qadimgi Mesopotamiya tsivilizatsiyasiga har tomonlama tavsif berilgan, asosiy madaniy yodgorliklar haqida tushuncha berilgan

[45, 47, 58, 66]. Ayniqsa, Moskvadagi Sharq adabiyotining Bosh tahririyati tomonidan «Sharqdagi izsiz yo'qolgan madaniyatlar izlaridan» (Po sledam ischeznuvshix kultur Vostoka) turkumida chop etilgan adabiyotlardan S. Lloydning «Mesopotamiya arxeologiyasi», A.Oppenxeymning "Qadimgi Mesopotamiya. Yo'qolgan tsivilizatsiya portreti" [50, 59] ilmiy nashrlarni ko'rsatish mumkin.

Bundan tashqari Qadimgi Mesopotamiya, jumladan Qadimgi Bobilning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti tarixi hamda Mesopotamiyada ishlab chiqilgan va amal qilgan qonun-qoidalar B.A.To'raevning "Qadimgi Sharq tarixi", V.V.Struvening "Qadimgi Sharq tarixi", M.M.Dyakonovning "Qadimgi Ikki daryo oralig'ining ijtimoiy va davlat tuzilishi", I.M.Dyakonov tahriri ostidagi «Qadimgi Sharq tarixi»ning Mesopotamiya tarixiga bag'ishlangan 1-kitobida, M.A.Dandamaevning "Qadimgi Bobilda quldorlik» kabi bir qator kitoblarda baen qilingan [64, 62, 40, 42, 36].

Bu adabiyotlarda mavzumiz yuzasidan ham oz-oz ma'lumotlar mavjud. Shimoliy Mesopotamiyadagi Akkad, Shumer, Assiriya, Qadimgi Bobil, shuningdek, Iroq hududida eng qadimgi davrlarda mavjud bo'lgan Xassun, Samarra, Xalaf, El Ubeyd madaniyatlari bu erda XX asr 60-70 yillarida arxeologik izlanishlar olib borgan olimlarning monografik asarlarida, maqolalarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, bu haqda R.Munchaev rahbarligidagi ekspeditsiya olimlarining arxeologik kashfiyotlari natijalarini aks ettirgan ilmiy ishlarida ma'lumotlar bor [57]. Qadimgi Mesopotamiyadagi tsivilizatsiya o'choqlarini xorijiy arxeologlar, jumladan J.Mellart ham ilmiy asoslangan holda tavsiflab bergan [56].

Qadimgi Mesopotamiya tsivilizatsiyasining alohida masalalari va muammolari XX asrning turli yillarida turli nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalarda ham o'z aksini topgan. Jumladan, N.Ya.Merpert va R.M.Munchaevlarning boshqa olimlar bilan birgalikda olib borilgan arxeologik

izlanishlarining natijalari muntazam ravishda chop ettirilgan [14,15,16,17,18,19,20,21,22].

Bugungi kunda INTERNET tarmog'idan foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi [25,26,27,28,29,30,31]. Mavzu yuzasidan berilgan ma'lumotlar asosan rus tilida bo'lib, ko'plab o'xshash tomonlari mavjud. Shunga qaramasdan, ularni o'rganish va umumlashtirish nihoyatda qiziqarli bo'ldi.

Shuni ta'kidlash zarurki, o'zbek tilida darslik, o'quv qo'llanma va ma'ruza matnlaridagi alohidla mavzularda Qadimgi Mesopotamiyaning qisqacha tarixi yoritilgan bo'lsa-da, katta hajmdagi maxsus adabiyot yoki tadqiqot yo'q.

Tanlangan ob'ektlar (qo'yilgan masala va muammolar) va tadqiqot metodlari

Mazkur bitiruv-malakaviy ishimizning 1 bobi Mesopotamiyadagi ilk shaharsozlik va davlatchilik asoslari deb nomlanib, unda Xassun, Samarra, Xalaf, El-Ubeyd va Assiriya tarixiga to'xtalgan.

2-bob bevosita Akkad, Shumer va Amoriylar davlatlari tarixiga bag'ishlangan.

Ishning 3-bobida esa Qadimgi Mesopotamiya tsivilizatsiyasining jahon tsivilizatsiyasi haqida so'z yuritilib, moddiy va ma'naviy madaniyati, ilmiy bilimlar va shaharsozlikning rivojlanishi, Mesopotamiya tsivilizatsiyasining tarixiy o'rni kabi masalalar yoritiladi.

Ishda tarix fanining ilmiylik, xolislik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish metodlariga tayanildi, uzviylik, davomiylik tamoyillariga amal qilindi xamda bugungi kunda dunyo olimlari tomonidan e'tirof etilayotgan tsivilizatsion uslubga ham tayanildi va taqdimot usulidan foydalanildi.

1-BOB. MESOPOTAMIYADAGI ILK SHAHARSOZLIK VA DAVLATCHILIK ASOSLARI

1.1. Shimoliy Mesopotamiyadagi Xassun,Samarra, Xalaf va El-Ubeyd madaniyatlari

Ma’lumki, El-Ubeyd madaniyati davri boshlanishidan oldin Mesopotamiyaning Shimoliy Iroq qismida Xassun va Samarra, Janubiy Iroqda esa Eridu va Xaji Muhammad madaniyatlari tarqalgan edi. Xassun madaniyati faqat Shimoliy Iroqqa mansubdir. Dastlabki bosqichlar uchun monoxrom kremlangan sopollar xarakterli bo’lib, ular 3 ta bir-birini almashtirgan qatlamlarda (Ia-IIc) topilgan. Bu madaniyatning gullab-yashnagan davri esa II-IV qatlamlarda namoyon bo’ladi. Arxeologik qazishmalar natijasida bu davrga oid katta bo’lmagan to’g’ri to’rt burchakli uylar topilgan. Ularda bir nechta xona bo’lib, xom g’ishtdan qurilgan. Poli qamishli tsinovkalar bilan qoplangan. Xonalarda oziq-ovqat saqlaydigan o’ralar mavjud bo’lib, ayrimlarida hatto qabrlar ham bor [56, 66-b.].

Xassun madaniyatiga oid sopol buyumlar 3ta guruhga bo'linadi: 1)qo'pol tasvirsiz; 2) tasvirsiz, lekin o'yilgan naqshlari bor; 3) kremrang fonga qizil bo'yoq bilan tasvirlar tushirilgan yoki tasvirli va o'yilgan naqshli buyumlar. Sopolchilik rivojlanib, takomillashib boradi. Bu sopol buyumlarini olimlar odatda «arxaik» va «standart» turlariga ajratishadi. IV qurilish gorizontidan boshlab (mil.av. 5500 y.) yangi tasvirli sopol buyumlar paydo bo'ladi. Ayrim olimlar fikricha, bu buyumlar boshqa hududlar olib kelingan bo'lishi mumkin. Ushbu takomillashgan sopol buyumlar Samarra sopollari nomi ostida mashhurdir. Tasvirli sopollar va tasvir bilan o'yilgan naqshlarni o'zida mujassam etgan sopollar birgalikda uchraydi.

Bu davrda Mesopotamiyada ilk bor hayvonlar va odamlarning naturalistik tasvirlari, hamda katta kosalarning ichki tomonida joylashgan murakkab kompozitsiyalar paydo bo'ladi. Ko'za va xumlarning shakllari o'zgarib boradi, ulardagi tasvirlarda, ayniqsa relefli naqshlarda odam figurasi ko'rinib turadi. Samarra davri sopollari Shimoliy Suriyada ham ko'p topilgan. Uning bu erda paydo bo'lishi Xalaf madaniyatidan oldin yoki birgalikda – mil.av. 5400 yilda paydo bo'lishi mumkin. Ko'psonli turar joylar va manzilgohlarda ikkala madaniyat izlari topilgan bo'lib, ammo Samarra madaniyatining kelib chiqishi, Xassun va Xalaf madaniyatlari singari hanuz muammo bo'lib kelmoqda.

Xassun, Samarra va Xalaf madaniyatlarini xronologik jihatdan qiyoslash avvalambor qazish ishlari va tipologik kuzatuvlar asosida olingan natijalarga asoslangan edi. Bugungi kunda mazkur ma'lumotlarning ko'payishi, ko'psonli radiokarbon sanalar paydo bo'lgani tufayli bu mutanosiblik qayta ko'rib chiqilmoqda. Ushbu madaniyatlardagi ko'pchilik xususiyatlar va belgilar ilgari izchil mavjud bo'lgan deb hisoblangan bo'lsa, endilikda ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarning natijasi deb qaralmoqda. Bu madani yatlar endilikda qisman sinxron deb tavsiflanmoqda: Mesopotamiya shimolida ilk Xalaf, janubda Samarra va ular oralig'ida Xassun. Ayni vaqtda Samarra madaniyati, taxminlarcha, Xassun madaniyati yo'q bo'lib ketganidan so'ng ham mavjud bo'lgan, Xalaf madaniyati esa Samarra madaniyatidan keyin ham mavjud edi [31].

Ayrim tadqiqotchilar fikricha, Samarra madaniyati dastlab Eronda paydo bo'lgan bo'lsa, boshqalari Samarra sopolchiligini Xassun madaniyatining davomchisi deb hisoblaydilar. Bu fikrlardan hech qaysi bugungi kunda jiddiy ravishda asoslanmaydi. Bugungi kun olimlar nuqtai nazariga ko'ra, eron madaniyatlari tepaliklardan (Tell shimshara) mustahkam o'rnashib olgan Samarra madaniyatining ayrim belgilarini o'zlashtirgan bo'lishi mumkin, chunki Samarra madaniyati Xassun madaniyatining davomchisi bo'lganda edi, uning sopol buyumlari Xassun sopollaridan shu tariqa o'ziga xos belgilari bilan ajralib turmasdi. Markaziy Eronda bir qator manzilgohlar (masalan, Tell es-Savvana) hamda Mandali yonida bir guruh manzilgohlarning (Choga Mam iva b.) ochilishi Samarra madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi va u mustaqil madaniyat ekanligini tasdiqladi. Uning asosiy belgisi sug'orma dehqonchilikning rivojidir. Bu esa aholi farovonligining oshishiga olib keldi. Ko'pxonali turar joylardan iborat yirik-yirik manzilgohlar qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan edi. Tell es-Savvanada o'ziga xos rejaga ega bo'lgan ibodatxonalar bo'lgan. Tasviriy san'at juda boy bo'lganidan tosh va sopoldan yasalgan sopollardagi ajoyib naqshlar, antropomorf haykalchalar dalolat beradi. Ular keyingi, Ubeyd madaniyatiga o'xshashdir [17].

Ayni vaqtda Samarra madaniyati haqida ma'lumotlar juda kam. Sopol buyumlardan tashqari Baguz me'morchiligi uning asosiy ko'rinishlari hisoblanadi. Bu manzilgohdan bir qator mehnat qurollari topilgan bo'lib, Suriya va Falastindagi qurollarga o'xshab ketadi. Samarrada metall buyumlar ham bo'lgan, chunki bu davrda Anatoliya temirchilari misdan harbiy qurol-yarog'lar va bilaguzuklar yasashgan.

Shunday qilib, Xassun va Samarra madaniyatlari davrining muhim xususiyatlaridan bir shu bo'ldiki, ular ga oid manzilgohlar lalmi dehqonchilik uchun qulay bo'lgan iqlimga ega hududda joylashgan edi. Albatta, sug'orma dehqonchilik Samarra madaniyatining asosi hisoblangan. Uning eng qadimgi manzilgohlari Dajla daryosi bo'ylab joylashgan va dehqonlar daryo toshganidan

foydalanib, dalalarini sug'orishgan. Dastlab, suvni ushlab turuvchi oddiy to'g'onlar qurilgan bo'lsa, keyinchalik kanallar qazilgan. Mandalidan shimolroqda kanal izlari aniqlangan bo'lib, miloddan avvalgi VI mingyillikka oidligi ko'rsatiladi. Mil.av. V ming yillik boshlarida esa (Ubeyd 3 davri) Mandali yonidagi kanal 4-6 metr kenglikda bo'lgan [18].

Samarra madaniyatining ta'siri janubdagi Jafarobod I (yoki Suziana I), Xuziston, Eridu kabi Mesopotamiya janubidagi madaniyatlarga katta bo'lgan.

Suza atroflarida o'ziga xos bezakli sopol buyumlardan tashqari ilk Xassun tipildagi monoxrom sopollar ham uchraydi. Xassun madaniyatining monoxrom arxaik (yoki neolitik) sopollari Jaroning yuqori qatlamlarida ham aniqlangan va Ras Shamradan to Suzagacha tarqalgan bo'lishi mumkin. Suzianadani bezakli sopol buyumlar shakli bilan ham, naqshi bilan ham Samarra madaniyatiga oid buyumlarga o'xshaydi.

Onato'lidan tashqarida ma'lum bo'lgan sopol neolitiga oid ko'pchilik madaniyatlardan farqi o'laroq, Xalaf madaniyati haqidagi tasavvurlarga arxeologik qazish ishlari natijasida ega bo'lindi. Bu madaniyatning tipik manzilgohi Aprachiya manzilgohi bo'lib, u Mosul yonida joylashgan. Mazkur madaniyatga nom bergan Tell Xalafda esa sopollar stratifikatsiya qilinmagan holda keyingi davrda qurilgan inshootlar xarobalaridan topilgan. Taxminlarcha, bu davrda metall keng tarqalgan edi, shuning uchun uni «xalkolit» deb atashadi.

Xalaf madaniyati hududi Frot va Katta Zab oralig'idagi yarim doirani qamragan bo'lib, uning janubiy chegaralari aniq belgilangan, shimoliy chegaralari esa Tavr tog'larigacha borib etadi, alohida joylarda undan ham shimolroqqa, platogacha kirib boradi.

Xalaf madaniyati Xassun yoki Samara madaniyatlari bimlan hech qanday umumiylikka ega bo'lmagan ayniqsa qudratli birlashma edi. Taxminlarcha, u shimoldan kelgan kelgindi xalqlar tomonidan yaratilgan bo'lishi mumkin. Ayrim olimlar uning dastlabki Vatani «Turkiya Mesopotamiyasi»da bo'lganini ta'kidlashadi [56,112-b.]. Sopolchilikda ushbu madaniyatga oid ikkita asosiy

variant farqlanadi. Sharqiy variant ayniqsa mashhur bo'lib, Arpachiya va Tepa Gavrda, Mosul yonida joylashgan. G'arbiy varianti esa Suriyada joylashgan bo'lib, uning xarakterli manzilgohlari Chagar Bazar, Tell Xalaf va Yunus Karxemish hisoblanadi. Variantlardan har biri sopol shakllarida va naqshinkorlikda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, taraqqiyotning uch bosqichi va yuksalayotgan nafsilikni aks ettiradi.

Eng qadimgi sopolchilik oddiy shakllarga ega bo'lib, ular orasida «krem uchun piyolachalar» bor. Ularda naturalistik naqshlar hukmronlik qiladi. Masalan, mazkur piyolachalar buqa yoki muflonlar boshi, yohud bo'lmasa leopard, bug'u, ilon, chayon, onarg kabi hayvon va turli qushlarning butun figuralari tasvirlangan. Bundan tashqari odamlar, daraxtlar, o'simliklar va gullar ham sxematik tarzda tasvirlangan. Ko'zalarda bir-biriga yaqin joylashtirilgan to'g'ri va to'lqinsimon chiziqlar, nuqtala rva doirachalardan iborat frizlar joylashtirilgan bo'lib, Chatal Xyuyuk davridagi sopollardagi naqshlardan birini eslatadi. Xuddi shunday oddiy bezaklarni bugungi kunda ham Yaqin Sharqdagi bozorlarda sotilayotgan miss ko'zalarda uchratish mumkin.

Xalaf madaniyatiga oid sopo idishlarning ko'pchilik shakllari metalldan ishlangan idishlarga o'xshash bo'lgan. Taxminlarcha, metalldan ishlangan bunday qadimgi idishlar ushbu ajoyib tsivilizatsiyada ham mavjud bo'lgan bo'lishi mumkin. Xalaf madaniyati markazining yonida joylashgan Diarbekir hududida metall buyumlarni ishlab chiqarish qadimdan rivojlangan. Diarbekir – turkchadan «miss er» degan ma'noni bildiradi. Bu taxmin muhim bo'lib, tarixchi va arxeologlarning diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Ilk Xalaf sopolchiligi o'rik rangli fonda bo'lib, qizil yoki qora bo'yoqli naqshlar bilan bezatilgan va yaxshi silliqlangan. O'rta davrda birmuncha murakkab shakllardagi sopol buyumlar ishlab chiqarilgan bo'lib, ularga krem surtilgan va tepa qismi buklangan va o'tkirlashtirilgan edi. Naturalistik motivlar yo'q bo'lib, bukraniyalar yanada stilizatsiyalashtiriladi. Buyumlarga xos naqshlar mohirlik bilan ishlangan geometrik kompozitsiyalardan iborat bo'ladi. Bu naqshlar

ko’p hollarda gazlamalardagi naqshlarni eslatib, egri chiziqlar, narvonchalar, nuqtalar, quyosh va yulduzlardan tuziladi.

So’nggi davrda sharqda katta polixrom «tarelka»lar ishlab chiqarilib, ularning markaziy qismi naqshli rozetka va Malta xochi shaklida ishlangan. Ular Yaqin Sharq sopolchilik san’atining mashhur asari hisoblanadi.

Sopolchilik – Xalaf tsivilizatsiyasining eng ajoyib yutug’i bo’lsa-da, uning boshqa qiziqarli xususiyatlari ham mavjud. Xalaf madaniyatining me’morchiligi, dini, tosh o’ymakorligi, to’qimachiligi, savdo-sotig’i ham o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lgan.

Xalaf davri me’morchiligining o’ziga xos xususiyatlari yaxshi ma’lumdir. Manzilgohlar ikki xonali uylardan iborat bo’lib, tosh terilgan ko’chalarning ikki tomonida joylashgan. Har bir uyda dumaloq gumbazli xona va uzun to’rtburchak shaklidagi vestibyul bo’lgan. Bunday yog’ochli uy ko’rinishida tosh bo’yin bezagi ham qilingan edi. Bu uylar toshdan qurilgan fundament ustida qurilgan. Uning devorlari shakl berilmagan g’ishtdan terilgan, chunki bu davrda shakl berilgan g’ishtlar yasashni Mesopotamiyada hali bilishmagan.

Tell Turlu (Frotning g’arbiy qismida) manzilgohidagi uylarda non yopadigan tandirlar, o’choqlar va qo’ng’iroqsimon o’ralar topilgan. Bu o’ralarda turli oziq-ovqat saqlangan. Demak, bunday uylar yashash joylari bo’lgan. Ayrim olimlar Arpachiyadagi bunday uylarni ibodatxona deb taxmin qilishgan. Bu uylardan eng kattasining devori 2 dan 2,5 metrgacha qalinlikda bo’lgan. Gumbazsimon xonalar diametri 10 metrgacha etadi, vestibyulning uzunligi esa 19 metrgacha. Yunusdagi gumbazsimon xonalarning diametri 6 metrgacha bo’lgan [56, 114-115-b.]. Arpachiyadagi yakkayu-yagona to’g’ri to’rtburchakli inshoot yuqori qatlamdan topilgan sopolchilik ustaxonasi hisoblanadi. Ammo lekin Suriyadagi Tell Asvad degan joyda, Balix daryosi bo’yidan topilgan va buqa shoxlari bilan bezatilgan ibodatxona ham to’g’ri to’rtburchak shaklida bo’lgan. Demaloq shakldagi inshootlar na Kilikiyada, va na Suriyaning Frot daryosining g’arbiy qismida mavjud bo’lmagan. Bu erlarda to’g’ri to’rtburchakli me’morchilik

mavjud bo’lgan. Arpachiyada qabristonlar ham topilgan bo’lib, ulardagi buyumlar juda ko’p, hatto loydan yasalgan haykalchalar ham bor.

Xalaf madaniyatining tashuvchilari dehqonchilik bilan shug’ullanganlar. Bu haqda yuzlab topilgan o’roqlar, chaqmoqtoshdan ishlangan mehnat qurollari, sovuntoshdan ishlangan o’roqlar dehqonchilikning rivojlanganidan darak beradi. Aholi emmer o’simligi va arpa etishtirgan. Moy olish uchun, tola olish uchun zig’irpoya o’stirganlar [11].

Ko’zalardagi rasmlar shu haqda dalolat beradiki, bu erda to’qimachilik ham yuqori rivojlangan edi. Asosan jo’n matolar ishlab chiqarilgan. Olimlarning bu erdagi chorvachilik haqida tasavvurlari asosan haykalchalar va sopolchilikka asoslanadi. Suyakdan ishlangan buyumlar deyarli topilmagan. Taxminlarcha, bu erda yirik shoxli mol, echkilar, qo’ylar, itlar xonakilashtirilgan bo’lishi mumkin, biroq faqat sigi rva echkilar haqida dalillar topilgan, xolos. Buqaga sig’inish uning xonakilashtirilganini bildirmaydi. Aksincha, ko’zalarda tasvirlangan hayvonlarning utslkan shoxlari shundan dalolat beradiki, bu yovvoyi buqa bo’lgan va erkaklarning nasldorligi ramzi sifatida sig’inish (topinish) ob’ekti bo’lgan. Onato’lida xuddi shu funktsiyani bajaruvchi qo’chqor tasvirlari kamroq uchraydi.

Aholi ovchilik bilan shug’ullanishni davom ettirganligi haqida bu erdan topilgan o’q uchrali va toshotar quroli yadrolari dalolat beradi. Saqlab qolingan va ovchilik sahnalarini tasvirlangan fragmentlarda boylog’lok itlar va qopqonga tushgan buqani tasvirlaydi. Ko’zalardagi rasmlarda uchraydigan qo’yonlar, onagrlar, to’ng’izlar va ko’psonli qushlar, shubhasiz, ovqat sifatida iste’mol qilingan. ko’plab naturalistik rasmlar sopolchilik uchun o’zga , begona bo’lishi mumkin. Onato’li bilan qiyoslanganda ular devor suratlarining nusxasi bo’lishi mumkin.

Agar buqa (bukraniya) va qo’chqor boshi erkaklar nasldorligiga sig’inganligini ko’rsatsa, ko’psonli o’tirgan yoki buklangan ayol haykalchalari (erkak haykalchalari yo’q) ma’buda-ayolga topinishning ham mavjud bo’lganidan dalolat beradi. Onato’lidagi singari, mazkur haykalchalar chiziqlar, tasmalar va

xochlar tasvirlari bilan bezatilgan. Bunday bezaklar Onato'lida hozirgi kungacha hosildorlik ramzi hisoblanadi. Haykalchalar juda oddiy. Boshqa sig'inish ramzlari buqa tuyog'i (yoki fallos) ko'rinishidagi bo'yin taqinchoqlari va ikkitalik bolta ko'rinishiga ega bo'lgan munchoqlar bo'lgan. Ular ham neolit davridagi Onato'lida bo'lgani kabi, ko'zalarda va matolarda ham tasvirlangan [20].

Yumshoq toshdan ko'plab boshqa tumorlar ishlangan. Bu tumorlar o'roqlar, belkuraklar ko'rinishida, o'rdaklar shaklida, uylar shaklida bo'lgan. Xuddi shu xomashyodan kvadrat yoki dumaloq shaklidagi muhrlar ham ishlangan bo'lib, ular oddiy tirqishli naqshlar bilan bezatilgan. Inson qo'lidagi suyaklarning tosh modellari ham topilgan. Biroq, obsidiandan ishlangan munchoqlar, plastinkalar va ko'zalar bu davr san'atining yuqori namunasi hisoblanadi. Shubhasiz, Xalaf madaniyatining tashuvchilari mis va qo'rg'oshindan ham foydalanishgan, ammo loydan yasalgan ko'zalarning shakllari metall bumlarnikiga o'xshagan bo'lib, yuksak texnika rivojidan darak beradi.

Olimlarning taxmin qilishicha, savdo aloqalari keng bo'lgan va yaxshi tashkil etilgan. Xalaf manzilgohlarida Van ko'li atrfolaridagi obsidian, Hind okeanidagi chanoqlar topilgan bo'lib, ular Fors qo'rfazidan olib kelingan bo'lishi mumkin.

O'z navbatida, Xalaf sopolchiligi Van ko'li yonidagi Tilki Tepa manzilgohidan (u Xalaf madaniyatining emporiysi bo'lgan bo'lishi mumkin) hamda miss va oltinga boy bo'lgan Malatiyadan ham topilgan. Xalaf importining ta'siri Fors qo'rfazidan to O'rta dengizgacha bo'lgan hududdagi sopol buyumlar shakllarida, naqshinkor rozetkalar, bukraniyalar va bezaklarda uchraydi. Savdo vositachilar yordamida olib borilgan na rivojlangan jamiyatlar tomonidan o'z hududlarida nazorat qilingan. Bu davrgacha hech bir madaniyat hech qachon bunday keng miqyosda savdo ekspansiyasini amalga oshirmagan edi.

Miloddan avvalgi VI mingyillik oxiri – miloddan avvalgi V mingyillik boshlariga oid Xalaf madaniyati va Onato'lidagi neolit va ilk xalkolit davriga oid madaniyatlar o'rtasida o'xshashliklar mavjudligini olimlar ta'kidlab o'tishgan. Bu

ikkala madaniyat o’rtasidagi o’xshashliklar, J.Mellartning fikriga ko’ra, ularning xo’jaligida ayniqsa namoyon bo’ladi. Ikki madaniyatda ham yirik shoxli mollarni xonakilashtirishgan. Ayniqsa buqaga qiziqish katta bo’lgan, uni turli buyumlarda tasvirlashgan. Oziq-ovqat uchun qo’y, echki, bug’u, oangrlar go’shtini iste’mol qilishgan bo’lib, bu hayvonlarning tasviri ham tasviriy san’atda, Onato’li va Xalaf madaniyati yodgorliklarida uchraydi [56, 137-138-b.].

Xalaf madaniyatiga oid yodgorliklarning shimolga tomon yo’nalganligi ularning aholisi kelib chiqishi jihatidan tog’ yonbag’irlarida istiqomat qilgan bo’lib, keyinchalik dehqonchilik va chorvachilik bilan shug’ullanish maqsadida vodiyga tushgan bo’lishi mumkin. Ular o’z madaniyatida, ayniqsa me’morchilikda o’rmonzorli tog’larda yashovchi aholining o’ziga xos xususiyatlarini saqlab qolganlar. Iroq shimolidagi qadimgi dehqonchilik manzilgohlarida XX asrning 70-yillarida olib borilgan arxeologik qazishmalarning ko’rsatishicha, bu hududning rivoji murakkab bo’lgan va u kam ma’lum bo’lgan.

Xalaf madaniyatiga oid Arpachiya TT8 yodgorligi miloddan avvalgi 5288 yil, Uaritdagi Amuka V yodgorligi esa miloddan avvalgi 5450 yil bilan belgilanadi. Onato’lidagi neolit va ilk xalkolit davri madaniyatlari Xalaf madaniyati endigina rivoj topayotgan davrda yakson bo’ldi va taxminan miloddan avvalgi V mingyillik boshlaridan texnik va madaniy taraqqiyotning markazi shimolga siljigan, so’ngra esa Xalaf madaniyatining emirilishidan keyin – Mesopotamiyaning janubiga siljigan.

Ayrim olimlar Yaqin Sharqdagi madaniy markazning sharqqa siljishini tasodifiy bo’lmasdan, balki g’arbiy madaniyatlar – Xajilar va G’arbiy Chatal Xyuyukning inqirozi natijalari deb taxmin qiladilar. G’arbdan kelib chiqqan hunarmand-kosiblar o’zlari uchun sharqda yangi homiylarni topganligini inobatga olinmasa, Xalaf madaniyatidagi ko’plab Onato’li madaniyatiga o’xshash tomonlarni tushuntirib bo’lmaydi. Din, buqaga sig’inish, metallga ishlov berish, to’quvchilik, ajoyib idish-tovoqlar, umuman, texnik taraqqiyotning yuqori darajasi Chatal Xyuyuk, Xajilar va Jan Hasandagi xuddi shunday xususiyatlarni eslatadi.

Taxminlarcha, Xalaf madaniyatiga Mesopotamiya janubidan kelgan kelgindilar chek qo'yganlar. Sug'orish tarmoqlarining kengayishi Ubeyd madaniyati tashuvchilarining ortiqligini keltirib chiqargan bo'lishi mumkin, chunki ular yangi erlarni qidirib topish uchun har tomonga siljib borganlar. Xalaf madaniyati miloddan avvalgi 4400-4300 yillarda yo'q qilingan yoki er yuzidan dom-daraksiz yo'qolgan bo'lishi mumkin [19]. Biroq alohida joylarda unga doir moddiy madaniyat namunalari qolgan.

Xalaf madaniyatining g'arbiy mintaqasiga qo'shni bo'lgan hamda Aleppodan Antioxiyagacha hududlarni qamrab olgan madaniyatning kuchli Xalaf ta'siri ostida rivojlangan bo'lib, ayrim joylardagina Samara an'analari bilan aralashib ketgan edi. Xalaf sopolchiligining import iva mahalliy imitatsiyalari Amuk S va Ras Shamr, dengiz bo'ylaridagi madaniyatda ustuvorlik qilib, bu erda silliqlangan naqshlarning mahalliy an'analari yo'q bo'lib ketgan edi. Biroq ushbu hudud mahalliy o'ziga xoslikni saqlab qolgan bo'lib, bu narsa ayniqsa Amukning keyingi madaniyatida ko'zga tashlanadi. Bu madaniyat Xalaf madaniyatidan Ubeyd madaniyatiga o'tish davriga xosdir. Mahalliy polixrom idishlar paydo bo'lib, uning shakllari qisman Xalaf, qisman – yangi sopolchilik bilan bog'langan va unda qizil angobli sopollar ko'proq uchraydi. Keyinchalik bunday sopollar katta hududga, janubga tomon do Falastingacha yoyiladi. Taxminlarcha, ushbu sopollarning tarqalishiga yangi aholining paydo bo'lishi ham bog'liqdir. Chunki u topilgan joylarda mahalliy an'analar uzilib, me'morchilik qashshoqlashadi va qurollarning yangi kompleksi tarqaladi. Bunday qurollar Bibl, Tell Gxasul, Iordaniyaning so'nggi neolitida ayniqsa ko'p uchraydi [20, 59-60-b.].

Olimlarning fikricha, yuu erda yarim ko'chmanchi aholi istiqomat qilgan bo'lishi mumkin. Bu madaniyat bilan bog'liq yakayu yagona inshootlar – Biblning mustahkam bo'lmagan uy-joylari yoki Falastindagi dumaloq erto'lalardir. Ierixon A-V, Tell esh-Shuna sopollari, Iordan daryosi vodiysi va dengiz bo'ylaridagi Vadi Rabax sopollari bu madaniyatning moddiy ashyolaridir.

Falastinda bu shimolliklar (ya’ni shimoldan siljib kelgan aholi) Yarmuk madaniyatini, Biblda – o’rta neolit madaniyatini siqib chiqaradilar. Shimolda esa ularni «so’nggi Xalaf» bezakli sopollarining tarqalishi bilan bog’lashadi. Janubdagi bezakli sopollarning ayrim komplekslari, masalan, Gxrubba (Ierixon IX yoki sopolchilik neoliti) Suriyadan kelib chiqish izlarini saqlab qolganlar. Biblda bezakli sopollar yo’q.

Bu madaniyatlarning barchasi uchun yangi tosh industriyasi va qizil sopolchilik xarakterlidir. Petlyasimon dastak va quloqli ko’zalarning asosida to’qilgan savat izlari qolgan bo’lib, kosa va piyolalar yarim sfera shaklida bo’lgan va qovurg’asimon qilib bezatilgan. Qizil bezak tasmalari silliq qizil oblitsovka bilan birga mavjud bo’lgan. Bu madaniyat juda sust rivojlangan bo’lib, inqiroziy hisoblanadi. Uning yarimko’chmanchilik xarakteri va juda kam buyumlari shimoldagi Xalaf madaniyati xalokatga uchraganidan so’ng umumiy inqiroz vujudga kelgani haqida dalolat beradi. Ras Shamrda ushbu yangi faza miloddan avvalgi 4582 yil bilan belgilanadi [57, 46-b.].

Miloddan avvalgi 3600-3500 yillarda shimoldan yangi aholi kirib kelgani bilan birga Livan va Falastin yana gullab-yashnash davriga kirdi. Bu yangi aholi «eneolit» va Beersheba-Gxasul madaniyatini olib keldi.

Har doimgidek, Shimoliy Suriyaning hosildor va boy erlari madaniyatning tezkor tiklanishiga imkon berdi. Janubi-sharqdar kelgan aholi o’zlari bilan bezakli sopolchilik an’anasini olib keldilar va keyinchalik bu an’ana Orontagi Xamadan Onato’li platosidagi Malatiyaga qadar tarqaldi. Ayrimlari Antioxiya vodiysiga kirib kelib, u erda Amuk E yodgorligida mashhur bo’lgan oddiy sopolchilik buyumlarini ishlab chiqara boshladilar. Bu vodiyning ayrim joylarida Tell esh-Sheyx tipidagi sopol buyumlarini ishlab chiqaruvchi bir muncha mohirroq kelgindilar o’rnashib qoldilar. Keyinchalik Tell esh-Sheyx sopolchilik uslubi Ras Shamrga ham tarqaldi. Bu sopolchilik uslubida Xalaf va Ubeyd bezaklari uyg’unlashib, chiroyli naqshin kompozitsiyalarni tashkil qiladi, ammo umuman olganda sopol buyumlarini tayyorlashning texnik darajasi yuqori bo’lmagan.

Ras Shamrda eski texnik uslublar hanuz mavjud bo'lgan: polixrom idishlar tayyorlangan, shu bilan birga yangi sopolchilik ham paydo bo'lib, uning naqshlarida Xalaf va Ubeyd motivlari bo'yoqlanmagan yuzada chuqur nuqtali bezaklar bilan uyg'unlashadi.

Ras Shamrda mavjud bo'lgan ettita izchil joylashgan qurilish gorizontlari topilgan bo'lib, ular Ubeyd davriga oiddir. O'troq turmush tarzi, ilgarigi farovonlik, miloddan avvalgi 4368 yilda qaytib keldi va olimlar uni IIIv bosqichining dastlabki Ubeyd qatlami deb atashdi [57, 50-b.].

Kilikiya hududi Onato'li platosidan to Tavrning baland cho'qqilarigacha va Suriyadan to o'rmonzor Ummon (Oman)gacha yoyilgan bo'lib, unda voqealar izchilligi yanada murakkabroq bo'lgan. Bu erda Mersin yodgorligida Xalaf ta'siri XIX-XVII qatlamlarda kuchli bo'lib, ayniqsa mahalliy bezakli sopolchilik an'anasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu an'ana Onato'li platosidagi Konya vodiysida ham uchraydi, hatto ular o'zaro bog'langan bo'lishi mumkinligini ayrim olimlar ta'kidlab o'tishgan ham. Konya vodiysiga faqat ayrim uncha muhim bo'lmagan Xalaf madaniyati namunalari etib kelgan bo'lib, ular savdo-sotiq aloqalarining natijasi bo'lishi mumkin. Mersinda esa, o'z navbatida, 2a qatlamdagi Jon Hasan madaniyatiga doir ajoyib polixrom sopolchilik namunalari topilgan bo'lib, ular ayniqsa Karaman manzilgohidagi polixrom buyumlarga o'xshab ketadi. Karamandagi polixrom uslub esa Xalaf madaniyatidan ancha oldin mavjud edi. Onato'li ta'siri asta-sekin yanada kuchli bo'lib qoladi va Mersin XVI davriga kelib mazkur kelgindi madaniyat ushbu mashhur qal'ada mustahkam o'rnashib oladi. Mersin XVI qal'asi taxminlarga ko'ra vodiyning sharqiy qismida istiqomat qilgan aholining bostirib kirishiga qarshi mudofaa inshooti vazifasini bajargan.

Endilikda misdan yasalgan ko'p sonli qurol-yarog'lar va qurollanish asbob-uskunalari; sopolchilikning yangi shakllari va bezaklari paydo bo'ladi. Sopol buyumlaridagi bezak va naqshlar Onato'li va Xalaf madaniyatiga oid bezaklarga umuman o'xshamaydi. Yangi kiritilgan yangiliklardan biri dastlab paydo bo'lgan ko'zalardagi dastaklarni tilga olish mumkin. Mersin qal'asining vayron bo'lishidan

oldin, taxminan miloddan avvalgi 4350 yilda –bu erda dastlabki Ubeyd importi paydo bo'ladi. Qal'aning vayron bo'lganidan so'ng esa Ubeyd ta'siri ancha kuchayib ketadi. Biroq u yagona emasdi: shunga yaqin o'xshashliklar Tell en Sheyx sopolchiligida ham kuzatiladi. Sopolchilikning boshqa bir tipi esa Ras Shamr (IIIv) bilan tor aloqalar bo'lganligidan dalolat beradi. Bu sopolchilikda tirqishlangan naqshlar va bezaklar (XV qatlam) ustunlik qiladi. Bu davrda polixrom bezakli sopol buyumlarni tayyorlash ham davom etaveradi [70, 93-94-b.].

Qal'aga aylantirilgan Mersin XV ham vayron qilindi. Uning XIV va XIII qatlamlarida mahalliy Ubeyd sopolchiligi bilan bir qatorda Onato'li sopolchiligi paydo bo'ladi. Onato'li sopol uslubida tayyorlangan buyumlar ko'p hollarda naqshlarsiz, ayrim hollarda esa uyilgan bezaklar bilan bezatilgan. Nihoyat, Tars va vodiy sharqiy qismidagi manzilgohlardagi bezakli sopol buyumlari Xalaf ta'siri hanuz davom etganidan darak beradi. Tars manzilgohi qabristonidan topilgan monoxrom idishlar Amuk F, Xama va Bibl bilan bog'lanib, miloddan avvalgi 3500 yilga oid deb hisoblanadi.

Bu davrga kelib Mersin yana Konya vodiysi ta'siriga duch keladi. Bu erda to'q rangli silliqlangan idishlar paydo bo'lib, ular oq bezaklar bilan bezatiladi. Kilikiyada esa bunday idishlarda silliq naqshlar paydo bo'ladi.

Miloddan avvalgi 3200 yillarda Onato'lidagi yangi kelgindilar ilk bronza asriga asos soladilar.

Kilikiyaning rivoji turli madaniyatlar ta'siriga duch kelgan hududlarning taraqqiyoti naqadar murakkab bo'lganini ko'rsatadi. Shimoliy Erondagi Tepai Gavra manzilgohida ham Xalaf madaniyatidan Ubeyd madaniyatiga o'tish jarayonida sodir bo'lgan sopol buyumlarni ishlab chiqarish texnikasidagi o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi.

Miloddan avvalgi 4400-4300 yillarda dastlab Janubiy Iroq hududida paydo bo'lgan Ubeyd madaniyati butun Mesopotamiya bo'ylab tarqaladi va bu jarayon Shumer madaniyatining shakllanishiga olib kelgan yangi davrning boshlanishiga

turtki bo'ladi. Bu davrdan boshlab Mesopotamiya Yaqig Sharq tsivilizatsiyasining markazi bo'ladi. Uruk davridagi Shumer tsivilizatsiyasining poydevori hisoblanadigan ushbu zamona butun hajmi jihatidan so'nggi vaqtga borib taqaladi.

Ubeyd madaniyati Mesopotamiyaning janubida paydo bo'lgan. Undan oldin bu erda bir muncha rivojlangan Xo'ja Muhammad madaniyati mavjud bo'lib, u Janubiy Eronda paydo bo'lgan bo'lib, Xalaf madaniyati ta'siriga uchragan. Quyi Mesopotamiyada, ya'ni Kish yonidagi Ras el-Amiyadan to Eridugacha bo'lgan hududda Ubeyd madaniyatining yoyilishi, uning mavjudligi, gullab-yashnashi sug'orma dehqonchilikning rivojiga bevosita bog'liqdir. Madaniyatning rivoji va sug'orish texnikasining yaxshilanishi sababli boy va serhosil vodiyda aholi soni o'sadi.

Ubeyd madaniyatining ilk bosqichi radiokarbon usuli bo'yicha miloddan avvalgi 4325 yil bilan belgilanadi. Uning eng ilk yodgorligi Varkadan topilgan. Keyichnalik aholi Frot va Dajla daryolarining yuqori oqimlari bo'ylab siljib, yangi erlarga borib o'rnashib oladi. Mesopotamiyaning uzoq yillik tarixida bu ko'chib yurgan aholi bo' yo'lni bosib o'tgan dastlabki aholi hisoblanadi, ulardan keyin boshqalar ham bu erlarga ko'chib kela boshlagan [25].

Ilgari madaniyat yutuqlari shimol va sharqdan yoyilgan bo'lsa, endilikda shimoldagi Xalaf madaniyati vayron qilingan edi. Uning ayrim punktlarida bosqinchilarga qarshi kurash ham olib borilgan, jumladan Arpachiyada vayron qilingan binolar va aholining ommaviy qirilganligi izlari topilgan. Endilikda Xalaf madaniyatining butun ulkan hududida Ubeyd madaniyatiga oid sopol buyumlarini topishmoqda. Tavr tog'lari shimolida ham – Malatiya, Elazix va Palu vodiylarida Ubeyd madaniyati izlari topilmoqda. Shimoli-g'arbda Ubey madaniyatining ta'siri Kilikiyadagi Mersingacha cho'zilib, bu erda tugamasdan, boshqa hududlarga o'tib ketadi. Xamadan janubi-g'arbroqda, Orontda Ubeyd sopolchiligi yoyilishining janubiy chegarasi belgilanadi. Shimoli-sharqda bu chegara Ozarbayjongacha etadi. Ozarbayjondagi Urmiya ko'lidan janubiy va g'arbiy hududlarda, ayniqsa Pishdeli

manzilgohida topilgan sopol buyumlar Ubeyd madaniyatiga oid sopol buyumlariga ayniqsa o'xshab ketadi. shuning uchun ham uni olimlar Ubeyd sopolchiligining mahalliy varianti deb atashadi. Sharqda Ubeyd madaniyatining aloqalari Xuzistongacha borib etadi va sharqqa olib boradigan savdo yo'llari shakllanadi.

Hech qachon hech bir madaniyat bunday ulkan hududlarga hattoki yuzaki ta'sirni o'tkazgan emas. Muhim bo'lmagan variantlarga qaramay, sopolchilik birmuncha bir xildadir. Qo'lda tayyorlangan bo'lishiga qaramasdan,texnik jihatdan u juda takomillashgan. Oddiy chiziqli monoxrom naqshlar go'zal Xalaf idishlarini ishlatgan odamlarga estetik zav-shavq bag'ishlashi mumkin emas, albatta. Shimolda metallga ishlov berish sohasida muhim yutuqlar qo'lga kiritilgan edi. Bu erda misdan quyilgan boltalar ishlab chiqara boshlanadi. Dastlab oltin ham paydo bo'ladi. Oltindan turli buyumlar bu davrning oxiriga tayyorlanadi. Janubda esa metall deyarli ishlatilmaydi, shuning uchun ham Ubeydliklarning harbiy muvaffaqiyatlari va g'alabalarini ularning qurollanish jihatidan ustun ekanligidadir, de bayta olmaymiz.

Ilk madaniyatlar bilan bo'lgani kabi, Ubeyd davri madaniyatining qudratli va kuchli bo'lishiga savdoqsotiqning yuksalishi va dehqonchilikning rivoji sabab bo'lgan. Shaharlarda aholi ko'psonli bo'lgani haqida bu erdagi Ubeyd davriga oid kattakon inshootlar va ulkan qabristonlar dalolat beradi. Eridudagi qabristonda 1000ga yaqin qabrlar mavjud. Xo'jalik haqida ma'lumotlar juda kam. Bu davrga oid san'at asarlarida Xalaf davriga oid yirik shoxli chorva va qo'ylar o'rniga ko'proq xonakilashtirilgan taka va echkilar uchraydi. Hayvonlar orasidagi odamlarni tasvirlovchi hayotiy sahna ko'rinishlari Gavrda topilgan. Bu tasvirlar steatit, diorit, serpentin, gematit, uzoq Badaxshondan keltirilgan lazuritdan ishlangan muhrlarda ham uchraydi. Ubeyd davriga oid ushbu kichkina muhrlar Xalaf davriga oid muhrlar bilan taqqoslanganda shu narsa aniqlandiki, yangi tsivilizatsiya ustalarining ilhomlanish manbalari ilgarigidan farq qilardi. Gar Xalaf davriga oid muhrlarda asosan geometrik naqshlar ustunlik qilsa, Ubeyd

madaniyatiga oid muhrlarda ajoyib naturalistik sahnalar tasvirlangan. Bunday tabiat ko'rinishlarini aks ettiruvchi sahnalar sopolchilik buyumlarida ham uchraydi. Ayniqsa Tepai Gavrdagi topilmalarda odamlar va hayvonlar suratlari ishlangan ko'plab sopol buyumlari topilgan [22, 107-b.].

Biroq madaniyatdagi o'zgarishlarni ayniqsa shaharlarda boshlangan monumental ibodatxonalar qurilishi to'laqonli aks ettiradi. Bu davrda paydo bo'lgan xom g'ishtdan qurilgan ulkan inshootlar toshdan yasalgan poydevorga qurilgan bo'lib, qadimgi tepalar ustida bunyod etilgan va shahardagi boshqa inshootlar ustidan hukmronlik qilgan. Eriduda ibodatxonalar platformalar ustiga qurilgan. Bu platformalar qadimgi inshootlarning butlangan qoldiqlari ustida bunyod etilgan ibodatxona minoralari yoki zikkuratlarining dastlabki ko'rinipshi hisoblanadi.

Zinapoyalar binoning uzun devoridagi eshikka olib borardi. Ibodatxona binosining o'zi esa uzun markaziy xona (uzunligi 10 m va undan ortiq bo'lgan) iborat edi. Xonaning bir tomonida keng platforma bo'lgan, boshqa tomonidan esa mehrob bo'lgan. Markaziy xona har tarafdan kichik xonalar bilan o'rab olingan. Ularda yuqori qavatga yoki tomga olib chiqadigan zinapoyalar bo'lgan. Markaziy qism chekkadagi ikki qavatli binolardan balandroq bo'lgan va uchburchak shaklidagi derazalarga ega bo'lgan. Binoning tashqi qismi burtmalar va tokchalar bilan bezatilgan. Bunday burtma va tokchalar keyingi davr Mesopotamiya sakral (ibodatxona va maqbara) me'morchiligi uchun ham xos [22, 113-b.].

Turar uy-joylarning rejalari asosan sakral inshootlarga o'xshash bo'lgan. Ular tashqi devorlarning va xonalar ichkarisining bezatilishi bilan farqlangan. Tepai Gavr XVI uyida qora va qizil bo'yoqlarda bajarilgan bezak izlari saqlanib qolgan. XII qatlamda butunlay ochilgan kvartal esa shahar hayotining kartinasini aks ettiradi. XIII qatlamda bir guruh monumental ibodatxonalar ochib o'rganilgan bo'lib, ular hovlining uch tomonida joylashgan. Bu binolar Eridu ibodatxonasidan yanada yaqqolroq tarzda Ubeyd madaniyati davri yutuqlarini aks ettiradilar. XX asr boshlarida ko'pchilik arxeologlar Ubeydliklarni Iroq janubidagi aholi kabi

(botqoqlik arablari) botqoqliklarda yashagan aholi deb hisoblab, ularning uy-joylari qamishli kapalar bo'lgan, ular asosan ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanib, faqat vaqti-vaqti bilan dehqonchilik qilishgan, deb o'ylashgan [57, 127-b.].

Mesopotamiyada topilgan el-Ubeyd davri madaniyatiga doir manzilgohlar va ulardan topilgan buyumlar esa mazkur taxminni yo'qqa chiqardi va Ubeydliklarning ham gullab-yashnagan davri bo'lganini isbotlab berdi.

1.2. Assiriya va Qadimgi Bobil podshohligining gullab-yashnashi va inqirozi

Qadimgi Mesopotamiyadagi birinchi arxeologik qazishmalar XIX asr o'rtalarida uning shimoliy qismi Assiriya joylashgan joyda amalga oshirildi. 1842- yil frantsuz diplomati P.Botta Kunjik tepaligini qazishni boshladi. Chunki bu joy mahalliy afsonalarga ko'ra Assiriya davlatining poytaxti Nineviya bo'lgan. Ammo tepalikni qazish aytarli natija bermagach, u bu erda ishni tugatib Xorsabod qishlogida qazish ishlarini boshladi. U bu joyda 1843 - yil Assiriya podshosi Sargon I ning Dur-Sharrukin saroyi qoldiqlarini topdi. Botta topgan yodgorliklar Luvr muzeyining Assiriya kolleksiyasining asos bo'ldi [28].

1845 – 1847 yillar ingliz diplomati G. Leyyard sharq tillarini yaxshi bilgan holda Nimrud tepaligini qazishni boshladi. Ulkan odam, ho'kiz, odam-sher haykallari bo'lgan podsho saroylari bilan Assiriya poytaxti Nineviya hisoblangan Kunjik tepalagidan, Assiriya podshosi Sinaxxerib (er. avv. VII asr) saroyini uning nevarasi Ashshurbanipalning «Loy kitob»lar bilan to'la kutubxonasi bilan birga topildi. Leyayrd topilmalari Londondagi Britaniya muzeyi qadimgi sharq kolleksiyasining asosi bo'ldi. Leyyardning xodimi U. Rassam Kunjik tepaligida qazish ishlarini davom ettirdi va harbiy manzaralar tasvirlangan ajoyib rel'efli boy podsho kutubxonasi bilan Ashshurbanipalning saroyini topdi. Rassam tomonidan Nimrud yaqinidagi Balavat degan joyda er. avv. IX asrga oid Assiriya

yodgorliklari jumladan, harbiy yurish va xiroj keltirish tasvirlangan 4 jez plita Balavat darvozasi qoplamasi topildi [28].

Ingliz olimlari tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmida qadimgi shumer shaharlari Uruk, Larsa va Eredu qazib ochildi. XIX asrnng oxirida frantsuz arxeologlari Shumer shahri Lagash va uning hukmdorlarini ko'p sonli haykallarini asosan, Gudeaning kumush va alebastr vazalarini, «Kalxatlar stelasi»ni, ibodatxona xo'jaligi va 3000 yillik tarixga ega Nippur shahrini ochdilar. Nippur xarobalaridan umumshumer xudosi Enlil ibodatxonasi, 6000 loy taxtachadan iborat ibodatxona-kutubxona, saroy, maktab, bozor, do'konlar uy-joylar va xo'jalik binolari topildi. XIX asrda Mesopotamiyadagi arxeologik kashfiyotlar hammani lol qoldirdi. Ammo arxeologik izlanishlar ishqiboz qiziquvchan kishilar tomonidan hech qanday ilmiy rejasiz, ilmiy usullarsiz olib borildi. Ilmiy usuldan xabarsizlik butun-butun madaniy qatlamlarni yo'qotishga olib keldi. XX asrning boshlaridan arxeologik izlanishlar qat'iy ilmiy usullarga suyangan holda olib borila boshlandi. Nemis arxeologi Koldevey Bagdod yaqinida qadimgi Bobil xarobalarini ochdi. 1899-1917-yillar shahar devorlari, Navoxudonosor II (er. avv. VII asr) saroyi, diniy marosimlar ko'chasi, bosh xudo Marduk ibodatxonasi, ulkan zikkurat qoldiqlari topildi. Nemis arxeologi V. Andre 1903-1914-yillar Assiriyaning eng qadimgi poytaxti Ashshurni qazib ochdi. 1933-1939-yillar frantsuz Parro Mari shahri qoldiqlarini qazib bu erda podsho Zimrilim saroyi (er.avv.II ming yillik boshlari), 20 ming loy taxtachadan iborat xo'jalik-diplomatik hujjatlar arxivini topdi. 1922-1924 yillar ingliz olimi D.Vulli qadimgi Ur shahri xarobalaridan oy xudosi Nannar, ma'buda Ningal ibodatxonalarini, podsho Ur-Nammu er. avv. III ming yillik oxirida qurgan zikkuratni, ilk sulola davrida qurilgan maktab, ustaxona, bozor, uy-joylar, ibodatxona, davlat va xususiy arxivlarini qazib ochdi [50, 48-49 b.].

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Evropa va Amerika tadqiqotchilari bilan birgalikda Iroq olimlari arxeologik izlanishlarda ishtirok eta boshladilar. Iroq olimlari Eredu shahrini, Nineviya xarobalaridan podsho Asarxaddon saroyini

ochdilar. XIX asrning 50-80-yillaridan XX asr boshlarigacha topilgan yodgorliklar yangi ilmiy usullar asosida qayta o'rganila boshlandi.

XIX asr oxiridan boshlab Mesopotamiya tarixiga oid qator tadqiqotlarni nemis olimlari K. Bekold, B. Maysner, amerikalik olimlar A. Almeted, A. L. Oppenxeym e'lon qildilar. Mesopotamiya tarixining quyidagi yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilayapti: siyosiy tarix va davlat qurilishi; sharq davlatchiligining o'ziga xos xususiyatlari; qadimgi Mesopotamiya huquqi; madaniyat va diniy e'tiqod etnogenezi, shumerlarning kelib chiqishi va ularning semit tilli xalqlar bilan aloqasi kabilar.

Iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar muammolari etarlicha o'rganilmagan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida E.Meer fikricha har qanday tsivilizasiya feodalizmdan boshlanadi, kapitalizm davriga etib ichki qarama-qarshiliklari tufayli halok bo'ladi, shundan so'ng bu sikl yana qaytariladi. Sharqda bu nazariya bo'yicha jamiyat abadiy feodalizm holatida turadi. Shu sababli XX asr boshlarida nemis olimlari B.Maysner, P.Koshaker asarlarida qadimgi Mesopotamiya jamiyati feodal jamiyat deb baholanadi [50, 54-b.].

Mesopotamiya tarixini o'rganish markazlari dastlab Angliya va Frantsiyada o'rnashdi. XIX asrda u Germaniyaga ko'chdi. Evropada fashizmning paydo bo'lishi ko'pgina olimlarni AQShga ko'chishiga sabab bo'ldi. Bu erda hozir jahonga mashhur osurshunoslik markazlari ishlaydi. Shu bilan birga hozir Frantsiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Turkiya va Iroqdagi osurshunoslik markazlari samarali tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Qadimgi Assiriya davri odatda er. avv. II ming yillikning 1- yarmi deb belgilanadi. Qadimgi Assiriya markazi Ashshur bo'lgan kichik hududni o'z ichiga olgan edi. Ammo ilk Assiriya jamiyatida savdo etakchi o'rin egalladi. Qadimda Assiriya orqali Kichik Osiyo va Kavkaz ortidan Tigr daryosi bo'ylab o'rta va Janubiy Ikki daryo oralig'i va Elamga, Sharqi y O'rta Er dengizidan muhim savdo yo'llari o'tgan edi.

Ashshur shahri asosiy savdo yo'llarida o'rnashib qolish uchun o'z koloniyalarini barpo qilishga o'ringan. Ashshur Kichik Osiyoni sharqiy qismini faol kolonizatsiya qilgan. Bu erdan mis, qo'rg'oshin, kumush, chorva mollari teri va yog'och tashib ketilgan [59, 67-b.].

Qadimgi Assiriya jamiyatida ibtidoiy quldorlik shakllangan bo'lib, ibtidoiy jamoa qoldiqlari saqlanib qolgan. Podsho va ibodatxona erlarida jamoachi va qullar mehnat qilgan. Erning asosiy qismini jamoa er egaligi tashkil qilgan. Qulchilikning asosiy manbalari mulkiy tabaqalanish natijasida erkin jamoachilarning qarzi uchun qul qilish va chetdan qul sotib olish bo'lgan.

Er. avv. XVI asrgacha Assiriya podsholari Alum-Ashshur, shahar-jamoa esa, Ashshur deb atalgan. «Kichik va ulug'lar» xalq yig'ini o'z ahamiyatini yo'qota borgan, hokimiyatning oliy organi «Shahar Uyi» boylardan tuzilgan oqsoqollar kengashi edi. Kengash a'zolari ichidan bir xil muddatga alohida lavozimli shaxs, «limmu» tayinlanib, u shahar xazinasini boshqargan, uning nomi bilan joriy yil boshlangan. Oqsoqollar kengashi sud va ma'muriy ishlar bilan shug'ullanadigan mansabdor shaxs «ukulluma»ni tayinlagan. Shahar-davlatning merosiy hokimi «Ishshiakkum» lavozimi ham mavjud bo'lib, u diniy vazifalarni bajarib, ibodatxonalar qurilishiga raxbarlik qilgan. U urush vaqtida harbiy boshliq bo'lgan. Er. avv.XX asrda xalqaro vaziyat Assiriya uchun noqulay kelgan. Frot havzasida Mari davlati yuksalib, Ashshurning g'arb savdosiga jiddiy to'siq bo'lgan. Xett davlati Assiriya savdosini Kichik Osiyoda to'xtatib qo'ygan. Amoriy qabilalarini Ikki daryo oralig'iga yurishlari ham vaziyatni bekaror qilib Assiriya savdosiga zarar etkazgan.

Faqat er. avv. 1781 yillar atrofida amoriylardan bo'lgan yo'lboshchi Shamshi –Adad Ashshur shahrini o'zini Yuqori Mesopotamiyadagi davlatini markaziga aylantirgan. Ashshur Ikki daryo oralig'ining shimolidagi shaharlarni bosib oladi, Marini bo'ysundirib, Karxemish bilan ittifoq tuzadi. Suriya shaharlari ham bosib olinadi. Ashshur g'arb savdosida vositachilikni o'z qo'liga oladi. Davlat boshqaruvida podshoning mavqei kuchayadi. Shamshi-Adad davlat

boshqaruvini bevosita o’z qo’liga olib, mutlaq hukmdor sifatida davlat boshlig’i, oliy harbiy boshliq va sudya vazifasini o’taydi. Boshqaruvni takomillashtirishga zaruriyat tug’iladi. Mamlakat hududi, aholisi okruglarga bo’linib, ularni boshqarish uchun noiblar yuboriladi. Er. avv. 1757-yilda Shamshi Adadning o’g’li Ishme-Dagan davrida Ashshurni Hammurappi bosib oladi [59, 78-79-b.].

Er. avv. 1740-yillar atrofida kassitlarning Mesopotamiyaga hujumi davrida Shamshi-Adadning avlodlari hokimiyatni yana o’z qo’llariga oldilar. Ammo bu sulola tez orada hokimiyatni boshqalarga topshirishga majbur bo’ladi, lekin Shamshi-Adad sulolasining boshqaruvi Ashshur tarixining eng yorqin davri deb tan olingan, keyinchalik Assiriya podsholari ro’yxatida Shamshi-Adad va uning ajdodlari ham kiritiladi.

Er. avv. XVI asrda Bobil sulolasi qulagach, Ashshur qudratli qo’shni davlat Mitannining tazyiqiga qarshi Misr bilan diplomatik aloqa o’rnatadi. bunga qarshi er. avv. XV asr o’rtalarida Mitanni podshosi Shaushaattar Ashshurni bosib olib, uni Mitanniga qaram qiladi. Mitanni Ashshurni g’arbga chiqadigan savdo yo’lidan butunlay mahrum qiladi. Keyingi asr boshlarida Ashshur Bobilni hukmronligini tan olish evaziga Mitanni zulmidan ozod bo’ladi va bir qancha vaqt o’tgach Bobildan to’la mustaqil bo’ladi.

O’rta Assiriya davri - er. avv. II ming yillikning II yarmi bilan belgilanadi. Er. avv. 1353-1318-yillarda podsho Ashshuriballit Assiriyani qudratli davlatga aylantiradi. Zaiflashib qolgan Mitanni xettlar tazyiqiga qarshi Assiriyaga ittifoqchi sifatida chiqadi. Tez orada Assiriya xettlarni yuqori Mesopotamiyadan haydab chiqarib, Frot daryosiga chiqadi. Natijada Mitannining sharqiy viloyatlari, bu erdagi diniy markaz Nineviya bosib olinadi. Mitanni, keyinchalik Bobil ham Assiriya ta’siri ostiga tushib qoldi [58, 80-b.].

Assiriya shahar-davlatdan qudratli davlatga aylanib, etti yuz yil davomida o’zining yurishlari bilan qo’shni hududlarga dahshat tug’dirdi. Assiriya davlatini shakllanishi er. avv. 1295-1264-yillarda hukmronlik qilgan podsho Adad-Nirari davrida tugallanadi. U birinchi bo’lib rasmiy ravishda o’ziga podsho unvoni berib,

Old Osiyo buyuk davlatlari hukmdorlariga teng bo'lgan "Buyuk podsho" mavqeiga da'vo qiladi. Er. avv. XIII asrda Xett davlati Assiriya savdogarlarini Kichik Osiyodan siqib chiqardi, Misrni Suriyadan mahrum qiladi. Mitanni davlati esa Assiriya uchun g'arbga chiqadigan yo'lni butunlay yopadi. Er. avv. XIII-XII asr boshlarida Assiriya yuqori Mesopotamiyaning qo'shni hududlarini to'rt marta o'ziga qo'shib oladi va to'rt marta yo'qotadi [58, 82-b.].

Osur podshosi Tukulti-Ninurta I (er. avv. 1233-1197-yillar) davrida Bobil va Kavkaz ortiga g'olibona harbiy yurishlar uyushtiradi. Bu podsho Ashshur o'rniga o'zi uchun yangi poytaxt Kar-Tukulti-Ninurta shahrini qurdiradi. Ammo uning hukmronligining so'ngi yillarida xettlar va Bobil Assiriyani u bosib olgan hududlarni katta qismidan mahrum qiladilar, bundan g'azablangan Ashshur zodagonlari Tukulti-Ninurtani taxtdan tushurib o'ldirdilar.

Er. avv. XII asrda Assiriya tushkunlikni boshidan kechiradi, Bolqon qabilalaridan bo'lgan mushklar Frot daryosi vodiysiga kelib xett davlatini halokatga uchratdilar, keyin elamliklarni hujumini qaytardilar.

Podsho Tiglatpalasalar I (er. avv. 1114-1076-yillar atrofida.) davrida xalqaro vaziyat Assiriya foydasiga o'zgaradi. Bu davrda Xett podsholigi halokatga uchrab, Misr siyosiy tarqoqlik tomon yo'l tutadi. Assiriya qulay vaziyatdan foydalanib, shimoliy Suriya va shimoliy Finikiyani, Kichik Osiyoning janubiy sharqiy qismini o'z ta'siri ostiga oladi. Suriyaning gullab-yashnashi er.avv. XII-XI asrlarda Arabistondan oromiy qabilalarining bostirib kelishi natijasida tugadi [58, 89-b.].

Er. avv. I ming yillikda Buyuk Assiriya harbiy davlati zamonasi boshlanadi.

Er. avv. I ming yillikda Old Osiyoda temirdan keng miqyosida foydalana boshlanishi, Qadimgi Sharqda iqtisodiy o'sishga olib keladi. Quruqlik va dengiz savdosi keng hajmda rivojlanadi, Xett va Mitanni kabi qudratli davlatlar tarix sahnasidan tushib ketdilar. Bobil va Misr ichki va tashqi siyosatda tushkunlikka yuz tutdilar, natijada Yaqin Sharqda Assiriya etakchi o'ringa chiqib oldi. Assiriya er. avv. X-VII asrlarda o'zining iqtisodiy, harbiy qudratini qayta tikladi, siyosiy

markazlashuv va barqarorlikka erishdi. Assiriya bu davrda faol istilochilik urushlari olib bordi. Buning sababi Assiriya iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan xom ashyo (metall, yog'och) taqchil bo'lganligi edi. Ikkinchidan, rivojlanayotgan shaharlar hunarmandchigi va dehqonchiligi va quldorlik xo'jaligi uchun ishchi kuchi - qullarga ehtiyoj tez o'sdi. Assiriyani istilochilik urushlarini olib borishining yana bir sababi, mamlakat quruqlik va dengiz savdo yo'llari tutashgan hududda joylashgani uchun etakchi o'rinni egallashga intilishi edi [60, 344-b.].

Er. avv. VIII asrga kelib, Assiriya davlati Shimoliy Mesopotamiyada o'z hokimiyatini mustahkamlaydi. Assiriya Kichik Osiyo va asosan, O'rta Er dengizining sharqiga o'z ta'sirini kuchaytirishga urindi. Bu hududlar savdo-hunarmandchilik, dengiz savdosi keng yo'lga qo'yilgan, tabiiy boyliklarga boy edi. Sharqiy O'rta Er dengizi qirg'oqlaridan muhim xalqaro savdo yo'llari o'tgan bo'lib, bu erda boy savdo – hunarmandchilik markazlari Tir, Sidon, Arvad, Bibl, Damashq va Karxemish kabi shaharlar mavjud edi.

Er. avv. XI asrning I choragida Suriya cho'llariga, janubiy Suriyadan Mesopotamiya va qo'shni mamlakatlarga ko'chmanchi oromiylar bostirib keldilar; er. avv. 1000-yillar atrofida ular Frot daryosidan o'tib Assiriyani bir necha janglarda mag'lubiyatga uchratdilar. Faqat oromiylarni istilosini podsho Adadnerari II (er. avv. 911-891-yillar), to'xtata oldi. Uning vorislari davrida ham Assiriya siyosiy-harbiy jihatdan Old Osiyoda o'z mavqeini tiklashga harakat qiladi. Er. avv. IX asrda Assiriya oromiy qabilalarini Shimoliy Suriyada tor-mor qildi. Finikiya va Suriya shahar hokimlarini bo'ysundirgan Urartu va Bobil davlatlariga qarshi g'olibona yurishlar uyushtiriladi.

Assiriya qo'shinlari Fors qo'ltig'igacha etib bordilar. Er. avv. 856-853 yillarda Assiriya Suriya shaharlarining birlashgan qo'shinlariga zarba berdi. (er. avv. 853 yilgi Oront daryosi yonidagi jang). Er. avv. 840 yildagina Frot daryosining ortida 16 yurishdan so'ng, Damashq podsholigi bo'ysundiriladi. G'olibona yurishlar boy o'ljalarni qo'lga kiritish imkoniyatini tug'dirdi. Assiriya

hukmdorlari Ashshur va Kalxu shaharlarida ulug'vor saroy va ibodatxonalar bunyod qildilar.

Er. avv. IX asr Assiriyaning iqtisodiy va harbiy-siyosiy jihatdan vaqtinchalik yuksalish davri bo'ldi. Shundan so'ng Assiriya uzoq vaqt olib borilgan urushlar natijasida zaiflashib qoldi. Er. avv. VIII asrda Assiriya iqtisodiy tushkunlikka yuz tutadi. Ichki ziddiyatlar, qo'zg'olon va isyonlar boshlanadi.

Ammo Assiriyani yangidan yuksalishi er. avv. 745-727-yillarda hokimiyatni bosib olgan harbiy boshliq, podsho Tiglatpalasar III davrida boshlanadi. G'ayratli sarkarda, mohir tashkilotchi Tiglatpalasar III podsho hokimiyatini mutsahkamlash uchun qator islohotlar o'tkazadi. Jumladan viloyatlarni kichik-kichik noibliklarga bo'lib yuboradi, noiblar ustidan markaziy hokimiyatning nazorati o'rnatilib, noiblarning vazifalari cheklanadi. Tiglatpalasar III xazinadan maosh oladigan ko'p sonli muntazam qo'shin tuzadi va ko'ngillilarni harbiy xizmatga chaqirishdan voz kechadi. Harbiy xizmatga aholining o'rta va past tabaqalari jalb qilinadi [60? 156-b.].

Assiriya qo'shini davlat bosqinchilik siyosatining asosiy quroli bo'lgan. Qo'shin qurollariga qarab bir necha qismlarga bo'lingan. Piyoda qo'shinlar son jihatdan eng ko'p sonli bo'lib, u engil va og'ir qurolli qismlarga bo'lingan. Er. avv. IX asrdan boshlab otliq qismlar paydo bo'ladi. Ular og'ir va engil qurollantirilgan qismlardan tuzilgan edi. Qo'shinning zarbdor qismi jang aravalari bo'lgan. Jang aravalari qo'shinning imtiyozli qismi edi, vaqt o'tishi bilan ularning o'rnini otliq qismlar egallaydi. Shahar va qal'alarni qamal qilishga Assiriyaliklar turli qamal qurollaridan foydalanganlar.

Assiriya davlatining uchinchi gullab-yashnashi er. avv. VIII asrning 40-yillaridan VII- asrning 40 yillari oxirigacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu davr Assiriya va Old Osiyo tarixida alohida o'rin tutadi. Qaysiki Assiriyaning faol ekspansiyasi unga qo'shni bo'lgan hududlar, davlatlar ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida hal qiluvchi ta'sir o'tkazadi. Assiriyaning harbiy kuchga asoslangan davlat hokimiyatining tashqi siyosati faqat qo'shni mamlakatlarga nisbatan harbiy

tazyiq o’tkazish orqali o’z ta’siri ostida tutib turishga yo’naltirilgan edi. Bunday siyosat Old Osiyoning o’sha davrdagi va keyingi asrlardagi siyosiy taraqqiyotiga kuchli ta’sir o’tkazadi.

Yaxshi qurollangan ko’p sonli qo’shin bilan Assiriya podsholari Tiglatpalasar III (er. avv. 745–727-yil), Sargon II (er. avv. 722-705 yil), Sinnaxxerib (er. avv. 705-680 yil), g’olibona yurishlar olib boradilar. Er. avv. 743-740 yillarda Suriya Shimoliy Suriya va Kichik Osiyo hokimlarini birlashgan kuchlari ittifoqi tor-mor qilinadi. Urartu davlatiga qarshi g’olibona yurishlar olib boriladi va mamlakat talon-taroj qilinadi. Sharqda Assiriya Midiyani bir qismiga ega bo’ladi va bu erda bir necha provintsiyalar tashkil qilinadi. Er. avv. 729-yilda Bobil bosib olinib Assiriya podshosi bu erda toj kiyadi. Sargon II (er. avv. 722-705-y.) davrida er. avv. 722-yilda Isroil podsholigi bosib olinadi. Hokimiyatni noqonuniy ravishda bosib olgan Sargon II podshoning yangi qarorgohi Dur-Sharrukin (“Sargon qal’asi”)ni quradi, uning avlodlari Sargoniylar Assiriyani uning halokatigacha boshqarganlar [6, 78-b.].

Badjaxl podsho-askar Sinaxxerib (er. avv. 705-681-yillar) poytaxtni Nineviyaga ko’chiradi, u kichik Osiyoning janubiy-sharqini qo’ldan chiqaradi, Yahudiyani qarshiligini botsira olmadi, uni qo’llagan Misrni enga olmaydi. Uning vorisi Asarxaddon (er. avv. 680-669-yillar) vayron qilingan Bobilni qayta tiklaydi. Bobilni Assiriya bilan uniyadagi alohida podsholik deb e’tirof etadi. Asarxaddon shimoliy-g’arbda er. avv. 679-yilda paydo bo’lgan dushmanni bartaraf qilib, Eronning shimoliy-g’arbida yashagan skiflar bilan er. avv. 672-yilda ittifoq tuzadi. U er. avv. 671-yilda Misrni bosib olib, shimoliy arab qabilalarini bo’ysundiradi.

Bu davrda Assiriya davlati chegaralari Nil daryosining birinchi ostonalaridan Kavkaz ortigacha, Eron past tog’idan Kichik Osiyogacha, O’rta Er dengizidan Fors qo’ltig’igacha cho’ziladi. Bu bepoyon davlatni Assiriya boshqarish juda katta qiyinchiliklarni tug’diradi. So’nggi podsholar Assiriyani o’zida isyonlar, bosib olingan hududlardagi to’xtovsiz qo’zg’olonlarni botsirish uchun juda katta kuch sarflashga majbur bo’ldilar. Er. avv. VII–asr o’rtalarida

Assiriya siyosiy tushkunlikka uchradi. Bobil, Elam, xaldey, oromiy hokimliklari, Suriya va Finikiya shaharlarida Assiriya hukmromligiga qarshi bosh ko'taradilar. Natijada Assiriya halokat yoqasiga kelib qoldi. Bobil va Midiya birgalikda Assiriyaga qarshi ittifoq tuzib er. avv. 614-yilda Ashshurni, er. avv. 612-yilda Nineviyani vayron qildilar. Er. avv. 590-yilda Xarran yonidagi jangda Assiriyaning harbiy qudrati to'liq sindirildi. Natijada butun Old Osiyoni tarixda ilk bor yagona davlat tarkibida birlashtirgan va bir necha yuz yil hukmronlik qilgan, qadimiy Sharqning eng katta davlati tarix sahnasidan tushib ketdi.

2-BOB. AKKAD, ShUMER VA AMORIYLAR DAVRIDA MESOPOTAMIYaDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYoSIY AHVOL

2.1. Akkad, Shumer podshohliklari davrida qadimgi Mesopotamiya

Er. avv. III ming yillik boshlaridan shumerlar jezni o'zlashtira boshladilar. Shu davrdan arxeologlar ilk sulola davrini (er. avv. 3000-2300-yillar atrofi) belgilaydilar. Shumer an'anasi esa mamlakat tarixini qaysidir "to'fon"gacha va "to'fondan" keyingi davrga bo'ladi. Haqiqatdan ham er. avv. 2900-yillar atrofida Quyi Mesopotamiyani qazishmalariga ko'ra "to'fon" bo'lgan [6, 60-b.].

Shumer tarixi u yoki bu markazning siyosiy etakchiligiga qarab er. avv. III ming yillikning birinchi yarmida ilk sulola davrini tashkil qilgan uch bosqichga bo'lish qabul qilingan. Bu davrda Kish shahri yuksalib I Kish sulolasi hukmronlik qiladi. Uning hokimlari orasida shumer afsonalari qahramonlaridan biri Etana ko'zga tashlanadi. Kishning qudrati juda uzoq vaqt xotirada qolib keyinchalik ko'p hokimlar «Kish lugali» unvonga ega bo'lishga harakat qilganlar, bu unvonning egasi lugal-"etakchi" bo'lgan. Kishning hokimlaridan biri Etana (er. avv. XXVIII asr) to'g'risida epik rivoyat shakllanib, rivoyatda u ilohiy burgutda o'zi uchun "tug'ilish maysasi"ga ega bo'lish va voris merosxo'r olish uchun osmonga xudolar oldiga ko'tariladi deb hikoya qilinadi [6, 61-b.].

Kishning zaiflashuvi Urukning yuksalishi bilan boshlangan. Er. avv. 2600-yillar atrofida Kish shahrining podshosi Aggi, Uruk shahrining podshosi Gilgamesh (mashhur dotson qahramoni) tomonidan taxtdan tushiriladi. Gilgamesh butun Shumerni birlashtiradi. Rivoyatlarga ko'ra u xudoning o'g'li bo'lib, o'limidan keyin xudo deb ulug'langan.

Ilk sulola davrining uchinchi bosqichida er. avv. 2550-yillar atrofida Urukni etakchiligi o'rniga o'zining shaxta sag'analari bilan ma'lum bo'lgan Ur sulolasi keladi. Ur shahri janubiy Mesopotamiyada etakchilik qila boshlaydi. Ur shahrida

podsho hokimiyati kuchayadi, hukmdorlar uchun hashamatli sag'analar qurila boshlaydi. Vaqt o'tishi bilan ziddiyatlar kuchayib, Ur zaiflashib qo'shni Lagash shahri kuchayib ketadi. Lagash deyarli barcha Shumer shaharlarini bo'ysundiradi, Elam ustidan g'alaba qiladi. Er. avv. XXIV asrda Lagashda ensi hokimiyati kuchayadi va u Lagash bosh xudosi Ningirsunning bosh kohini bo'ladi. Uning hokimiyati urug'chilik munosabatlarini emirilishi, savdo-hunarmandchilikni rivojlanishi natijasida shahar aholisini turli tabaqalari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi [28].

Ibodatxona xo'jaliklariga ham soliq solinadi, hunarmand, jamoachilardan turli majburiyatlarni o'tash talab qilinadi. Daromad solig'i ko'payadi. Lagashda ijtimoiy ziddiyat kuchayadi. Yangi «ensi» Urukagina ijtimoiy ziddiyatlarni bo'shashtirish uchun islohot o'tkazadi. Oliy kohinlar soliqlardan ozod qilinadi, ibodatxonalarning qaram kishilarga natural mahsulot to'lovi miqdori oshirilib, ularning huquqlari kafolatlanadi. Aholidan olinadigan soliq-to'lovlar bir qadar kamaytiriladi. Urukagina «Lugal» unvonini qabul qiladi. Ammo ichki ziddiyatlar Lagashni zaiflashtiradi. Lagashning ichki qiyinchiliklaridan foydalangan Umma shahri podshosi Lugalzagissi er. avv. XXIV asr oxirida Lagashni bosib olib, butun Shumerda chorak asr etakchilik mavqeiga ega bo'ladi. Umma shahar-davlati hududi O'rta Er dengizidan Fors qo'ltig'igacha (shumercha "Yuqori dengizdan to quyi dengizgacha") cho'zilib ketgan [28].

Kishning fitna qurboni bo'lgan podshosi Lugalzagissining kichik saroy amaldori, kelib chiqishi oddiy odamlardan bo'lgan akkadlik (rivoyatlarga ko'ra tashlandiq bo'lgan va keyinchalik Kish saroyida tarbiyalangan) Kishning bir qism aholisi bilan ko'rimsiz Akkad shaharchasiga yashirinadi. O'zini Sharrum-ken ("haqiqiy podsho" zamonaviy aytilishi Sargon) Sargon, (er. avv 2316-2361-yillar) deb e'lon qiladi. Sargon ommaviy engil qurollangan qo'shin tuzdi. Shumer shimolidagi Akkad davlatiga asos soldi. U kuchli qo'shin bilan 34 jangdan keyin butun Shumerni istilo qildi. Sargon o'zining 55- yillik podsholigi davrida (er. avv. 2316-2261 yillar) butun Mesopotamiyani Akkad davlati qo'l ostiga birlashtiradi.

Bundan tashqari u Kichik Osiyo, Kipr, Suriya, Elam va hatto uzoq Janubiy Erongacha harbiy yurishlar qiladi. Sargon davlati hududiga ahmoniylarga bo'lgan bir yarim yil davomida hech kim teng kela olmadi [32, 453-b.].

Sargon davlati oldingi Mesopotamiya davlatlaridan farq qilgan holda markazlashgan davlat edi. Sargon va uning vorislari davrida mamlakatda iqtisodiyot, pul-tovar munosabatlari, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik yuksaladi. Podshoning mustabid hokimiyati urug' zodagonlarining, oqsoqollar kengashining kuchli qarshiligiga uchraydi. Podsho ularning qarshiligini sindirish, o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun xizmatdagi zodagonlar, amaldorlar qisman kohinlarga tayanib ish ko'radi. Ba'zi shaharlarning merosiy «Ji»lari (hokimilari) o'rniga podsho o'z kishilarni tayinlaydi. Sargon muntazam qo'shinni tashkil qilib, harbiylarga xizmat uchun er ajratib beradi. Natijada podsho («Sharrum») ning qudratli hokimiyati vujudga keladi [32, 454-455-b.].

Sargon va uning merosxo'rlari Rimush, Naramsuen (er. avv. 2236-2200-yillar) podshoning mustabid hokimiyatini mustahkamlash uchun isyonchi shaharlar, «ensi»lar, urug' zodagonlariga qarshi muntazam kurash olib borishga majbur bo'lganlar. Podsho hokimiyatini mustahkamlash uchun merosiy «ensi»larni, o'z o'g'illari bilan almashtirganlar, merosiy hokimlar oddiy amaldorlar darajasiga tushirilgan. Podsho ichki siyosatda kohinlarga suyanadi. Kohinlarga ko'plab imtiyozlar berilgan. Podsho va uning o'g'illari ibodatxona kohinlari lavozimini bajarganlar. Kohinlar Naramsuenni «akkad xudosi» deb tan oladilar.

Naramsuen faol tashqi siyosat olib boradi. Subartu, Elam, Fors qo'ltig'igacha, Zagros tog'larida lulubeylarga nisbatan g'olibona yurishlari va tashqi siyosatdagi yutuqlari uchun «dunyoning to'rt iqlimi podshosi» unvoniga ega bo'ladi [41, 79-b.].

Akkad podsholigining qudratiga Mesopotamiyaga Zagros tog'laridan bostirib kirgan tog'li qabilalardan bo'lgan qutiylar chek qo'yganlar. Boshida Naramsuen ularni og'ir janglarda engib haydab chiqardi va o'zi urushda halok

bo’ldi, ammo ular yana bostirib kirdilar. Mamlakat qutiylar tomonidan talon-taroj qilindi, Shumerning mahalliy hokimlari ularga xiroj to’ladilar. Lagash hokimlari qutiylar yordamiga tayanib boshqa shaharlar ustidan ma’lum darajada hukmronlik qildilar. Janubiy Mesopotamiyada Lagashning zo’ravonligi boshqa shahar-davlatlarning qahr-g’azabiga uchradi va qutiylardan ozod bo’lish vaqtida qo’shni shahar-davlatlar tomonidan Lagash shahri shafqatsiz buzib tashlanadi. Qutiylar davridagi Lagash hokimlaridan biri Gudea (er. avv. 2137-2117-yillar) o’zining yozuvlari va haykallari bilan ma’lum. Uning davrida Ningirsu xudosi ibodatxonasi atrofida yagona ibodatxona xo’jaligi tashkil etilgan edi. Gudea bu xudo uchun olinadigan maxsus soliq joriy qiladi va qurilish majburiyatini kiritadi. Gudea Hind daryosi havzasi viloyatlari bilan savdo qiladi va Elam bilan urush olib boradi [43, 381-382-b.].

Qutiylar Mesopotamiyada yuz yilga yaqin hukmronlik qilganlar. Er. avv. 2109-yil qutiylar Ur podshosi Utuxengal tomonidan tor-mor qilinadi va III Ur sulolasi hukmronligi boshlanadi. Utuxengalning safdoshi Ur-Nammu (er. avv. 2106-2094-yillar) va uning o’g’li Shulgi (er. avv. 2093-2046-yillar) o’z davlatlarini misli ko’rilmagan darajada mustahkamladilar va ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlarni amalga oshirdilar.

Buzilgan sun’iy sug’orish tizimi to’liq qayta tiklanib, yangi-yangi kanal, to’g’onlar ko’riladi. Katta hajmdagi chorvachilik, dehqonchilik xo’jaliklari tashkil qilinadi, hunarmandchilik bilan shug’ullanadigan podsho ustaxonalari ishi yo’lga qo’yiladi, tashqi savdo kengaytiriladi. O’lchov birliklari tartibga solinadi. Ibodatxona zikkuratlari, podsho sag’analari quriladi. III sulola davrida asosiy er zahirasi podsho qo’lida to’plandi. Jamoa erlari xususiy qo’llarda o’ta boshlaydi. Podsho jamoachilarni xonavayron bo’lishi jarayonini sekinlashtirish uchun jamoa erlari oldi-sottisini ta’qiqlaydi. Ammo ersizlanish kuchayib ketadi. Kambag’allarning o’z bolalarini qul qilib sotishi, qarz uchun vaqtincha qul bo’lish odatdagi hol bo’lib qoladi. Qullar ko’payib ketadi, qul 9-10 sikl turgan. Shumer-akkad podsholigining davlat boshqaruvi III sulola davrida qadimgi sharq podsho

hokimiyatining tugallangan shakli edi. Podsholar cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib «Ur podshosi, Shumer podshosi va Akkad podshosi» unvonlariga ba'zida «dunyoning to'rt iqlimi podshosi» unvonlariga ega bo'lganlar [43, 386-b.].

2.2. Amoriylar hukmronligi davrida Mesopotamiya

Eramizdan avvalgi III ming yillik o'rtalarida Frot va Dajla (Tigr va Evfrat) bo'ylaridagi davlatlarning hosildor erlariga Suriya tomonidan qadimiy yozuvda g'arbdan "Martu" qabilalari kelib o'rnasha boshladilar [32, 67-b.].

Miloddan avvalgi III ming yillik oxirlarida Ikki daryo oralig'idagi yirik shahar Kadingir bo'lib, uni boshqarish semidlar tomonidan boshqarila boshlandi. Mesopotamiyadagi Shumer va Akkad shahar-davlatlari o'rtasidagi o'zaro nizolar kuchayishi sababli, g'arbdan ajralib, sharqdan esa elamitlar bostirib kira boshlaydilar.

Ko'pgina shahar-davlatlar amoriylar tomonidan boshqarila boshlanadi. Amoriylar bostirib kelgan Larsa, Ur, Isin, Mari, Nippur kabi davlatlar semidlar noiblari tomonidan boshqarila boshlandi. Ashshur shahridan topilgan qadimiy shumer yozuvlarida Bobil shahri g'arb va sharq o'rtasida joylashgan yirik markaz davlat bo'lib, hunarmandchilik va yirik madaniyat markazi hisoblangan. Bobil orqali yirik savdo yo'li o'tgan.

Miloddan avvalgi II ming yillik boshlarida Bobil va Mesopotamiyani boshqa shahar-davlatlari amoriylar sulolasi tomonidan boshqarila boshlandi. Qadimda , er.av. 1894-1595 yillarda Bobil podsholigi deb nom oladi.

Tarixiy manbalar ko'rsatadiki, mil.av. 1792-1750 yillarda amoriylardan bo'lgan Xammurapi Bobilda podsholik qilgan. Xammurapi Ikki daryo oralig'idagi shahar davlatlarini o'zaro urushlariga barham bergan va o'z davlati ostida birlashtirgan. Xammurapi Sharqiy Elam podshosi Rim-sin bilan kurash olib boradi va Elamni, keyinchalik Shumerni ham bosib oladi. Xammurapi Mari podshosi amoriylarga mansub Zimrilim bilan bir qatorda Shimoliy Mesopotamiyani o'ziga

bo’ysundirgan. Mil.av. 1759 yilda Xammurapiga qarshi mariliklar qo’zg’olon ko’targanligi sababli, Zimrilim qo’shinlarini engib, Marini ham bosib oladi. Shu tariqa Ikki daryo oralig’ida yirik Bobil podsholigi yuzaga kelgan. Xammurapi turli elat va qabilaviy bo’limlarga ega bo’lgan hukumatni boshqarishda oldinga qonunlar "Urnoma", "Lishit Ishtar", "Bilalam", "Eshnun" qonunlarini o’rgangshan holda yangi qonun to’plami joriy etishga kirishdi. Xammurapi qonunlari negizida "adolat" bilan boshqarish degan iborani asos qilib olingan [28].

Xammurapi qonunlari xalqqa ma’qul kelgan va u ulug’langan. Xammurapi markazlashgan davlatini boshqarish rejasini tuzar ekan, o’tmish qonunlaridagi ayrim boblarni e’tiborga olgan.

Uruk shahridan topilgan qadimgi shumer yozuvlarida saroy qullarini bolalari uy qullariga aylantirilgan. Shumer qonunlarini 21 bobida ko’rsatilganki, "ota o’z bolasini sotishi mumkin" deb. Mil.av. XX asr boshlarida Eshnun qonunlarida aholini uch asosiy guruhga botlar, huquqiga ega bo’lgan kishilar, kambag’allar va qullardir. 40-moddasida ko’rsatishicha, qul ayol yoki qul ho’kiz bilan boshma-bosh almashtirish mumkin deb yozilgan [32, 63-b.]. Bundan ko’rinadiki, qul - mol bilan taqqoslangan.

Yuqoridagi qonunlarda kambag’al va ishsiz kishilar ham agar qarzdor bo’lsa, qulga aylantirilishi haqida so’z bergan. Bu qonunlardagi moddalarga asosan bosh zodagonlar huquqi himoyalangan [6, 101-b.].

Bobil podshosi Xammurapi ungacha bo’lgan Ikki daryo oralig’i podshohlari kabi, o’zining hukmronlik davrini an’anaviy tadbir - "adolat" o’rnatishdan boshladi. U "Adolat" deganda qarzlarni yo’q qilish va imkoniyati yo’qlarni kechirishni nazarda tutgan. "Adolat"ni e’lon qilish odati Bobil podshohligida podsho shahar devori ustida "oltin mash’al" yonar, uni ko’rgan atrofdagi shahar va qishloqlar bu xabarni qo’shinlariga etkazardi. Xuddi shu usulda mash’al yoqib, bu daqiqadan boshlab mamlakatdagi qarzdorlar o’z qarzlaridan ozod qilinganlar. Keyinchalik poytaxtdan o’lim jazosi tahdidi bilan (agarda kim uni boshqacha ta’rif qilsa yoki unga qarshi chiqsa) farmon kelardi.

O’z hukmronligining birinchi 5 yilini Xammurapi ibodatxonalar qurilishi va taxminga raqiblarga qarshi urush tayyorgarligiga bag’ishladi. Oltinchi yili (milav. 1787 y.) Xammurapi Larsaga yurish qilishga jazm etdi. U Issin va Urukni oldi; Rim-sin poytaxtidan Bobil qo’shini bir chaqirimda turgan edi. Biroq yosh Bobil podshohining an’anasiga vaqti vaqti etmagan edi. Yanagi yil Larsa bilan urush davom etdi (Xammurapining 8-yil sanash formulasida keltirilgan "Yamutbali" mamlakati shundan dalolat beradiki, Larsa podshohligi Kudurmabuga sulolasining dushmanlari Yamutbali qabilasi mamlakati deb atashgan). Ammo urush xarakatlari endi Larsa ko’ra Bobilga yaqinlashgan edi. "Lavlagi kanali" bo’ylariga (Mumundar - u Xammurapi bobosi Apil-Sinning buyrug’iga binoan qazilgan bo’lib, Larsa hududidan tashqarida bo’lgan) [49, 51-b.].

Shu tariqa uzoq yillar davomida Xammurapi va Rim-sin o’rtasida tinchlik o’rnatiladi. Endi Xammurapi boshqa yo’nalishlarda urush olib boradi. Mil.av. 1783 yilda Malguum shahrini talon-taroj qilib, Diana irmog’i oldida miloddan 1782 yilda Bobil hududini shimol tomonga kengaytiradi. Rapikum esa mamlakatning pastki oqimini qo’shib oladi. Keyin esa Xammurapi bosqinchilik urushlariga uzoq tayyorgarlik ko’radi. Raqiblarning kuchini hisobga olib, o’zida ham mustahkam istehkomlar bunyod etadi. Ulardan eng muhimi "tog’ mamlakati ro’parasidagi bosh devor"dir (tahmin qilinishicha, tepa cho’l cho’pon qabilalariga qarshi Bobilni ichkarisini ta’minlaydi).

Shulardan tashqari bu davr uyushmalar, ittifoqlar tashkil etish, diplomatik elchixonalarning faoliyatini jonlantirish davri bo’lgan. Bu haqda bu davrga qarashli Marida topilgan podsho arxividagi hujjatlar dalolat beradi. Zimra-lima-Mari podsholigining amaldorlarining yozishicha, o’z-o’zidan kuchli bo’ladigan podsho yo’qdir, Bobillik Xammurapi orqasidan 10-15 ta podsholar bor, Rim-sin orqasida ham shuncha. Eshkunlik Ibal-pi-El orqasida ham shuncha. Qatna (suriyadagi) podshosi Amut-pi-El orqasida 20 podsho bor. Bunga, albatta, ishonib bo’lmaydi, chunki hech bir davlat arbobining ittifoqchilari qatorida shu miqdorda podlsholar bo’lishi mumkin emas edi. Lekin shuni aytish kerakki, bu zamonda

cho’pon qabilalarining boshliqlarini ham "podsho" deb kelishgan. Shuni hisobga olsak, xat muallifi keltirgan vaziyat haqiqatga yaqin bo’lib chiqadi [49, 53-b.].

Ma’lumki, Xammurapi Eshnuna tomonidan taklif etilgan ittifoq tuzishdan bosh tortdi va mil.av. 1783 yilda uning azaliy dushmani - Shomim -Adad 1 bilan shaxsan o’zi uchrashib, ittifoq tuzdi. Bu Amoreya sardori edi, u mil.av. X1X asr oxirlarida Dajla bo’yidagi Ashpurda joylashib olgan edi, bundan tashqari u o’rta Frotdagi Mari va Suriyadagi Katnani o’z ichiga oladigan buyuk va katta podshohlikka hukmronlik qilgan. U bilan ittifoq tuzish uchun Xammurapi Shaimi-Adaddan o’ziga Xit va Rapikum (o’rta Frotdagi) shahar-davlat bo’lib Eshkuna ittifoqchisi edi.

Mesopotmamiya yo’llarida har xil podsholar xabarchilari yura boshladi. Siyosiy majlisga Xammurapi o’ylab chiqqan katta ish tayyorlanar edi.

Mil.av. 1768 yilga kelib Xammurapi muhim ma’muriy islohot o’tkazib, bu islohot podsho hokimiyati va xo’jaligini yanada mustahkamladi. Mil.av. 1764 yilda tajribaga ega bo’lgan Xammurapi o’zining yirik yurishlarini boshlab yuboradi va bu yurishlar zafarli bo’ladi. Bu yili u Eshkuna, Mamnun va Elamning birlashtirgan qo’shinini tog’lik qabilalar yuborgan qo’shinlar bilan tor-mor etdi. Xammurapining Elam ustidan qozongan g’alabasi haqidagi tasdiqlar maqtanish emas edi, uning yozishmalaridan u hayoti oxirida bu mamlakatda chinakam hukmronlik qilganini aytish mumkin. Bu dushmanlar ustidan qozonilgan g’alaba, uningcha, Xammurapi "Shumer va Akkad podshohligining butun quyi Mesopotamiya birlashmasi deb e’lon qildi va o’z davlatini III-chi Ura sulolasi asos etgan davlat bilan birlashtirdi. Bu esa Rim-sin hokimiyatining noqonuniy ekanligini tan olishga teng edi.

Tog’lar va Dajla tomonidan o’ziga flangni ta’minlab, Xammurapi Rim-sin 1 ga qarshi yurish qildi va Nippurni egalladi. Yanagi yozda esa Larsa devorlari tagiga etib keldi. Mil.av. 1763 yili Enula (avgust-sentyabr) oyi oxiridan Larsa shahri podsho xo’jiligidagi sarf-harajatlar haqida Ermitajda hujjat saqlanilmoqda. Undan shu narsa ma’lum bo’ladiki, shu yili 1 yarim yillikda urush tufayli podsho

xodimlariga haq to’lash Larsada 1,5 marta ko’paygan, saroy zahiralaridan (1 oyda) o’tgan yiliga nisbatan ko’proq olingan edi. Aynan 26 ming- 300 askar oylik haqi. Bundan ko’rinib turibdiki, Larsa podshohi saroy xodimlari soni uncha katta emas edi, saroy zahiralaridagi qurshov vaqtida juda katta bo’lmagan otryadni ta’minlaganlar [49, 53-54-b.].

Rim-sinning taqdiri ham nima bo’lganligi ayon emas. Xammurapiga Rim-sindan "nomoreylar otasi" unvoni qoldi. Bundan oldin u o’zini podshohligini Shumer va Akkad podshohligi deb e’lon qilgan edi. Larsani bo’ysundirish bilan u tinchlanib qolmadi.

Mil.avv. 1762 yili u Eshnuna va uning ittifoqchilari bilan teng kelib, Dajla bo’yidagi Mankisum shahrini egalladi va bu daryo bo’ylarida Dixla va Aden oralig’ida mustahkam o’rnashib oldi. Mil.av. 1761 yili u birin-ketin Malshum bilan birgalikda Dajla orqasidagi bir necha Xurritga qarashli qishloqlarni egalladi va Shamshi Adad 1 hukmronligidan ozod bo’lgan (mil.avv. 1782 y) Mari podshohligini o’ziga bo’ysundirdi. Shu bilan o’zining ittifoqchisi bo’lgan Mari podshosi Zimrilimni ham o’ziga bo’ysundirdi.

Ikki yildan so’ng Xammurapi Malshum va Mari shaharlari devorlarini qulatishga buyruq berdi, Zimri-Limni ham jazoladi. Devorlvarni qulatish shaharlar uchun ularni o’zlarini yo’q qilish bilan teng edi. Xammurapi keyinchalik "Malshum odamlarini nochorlik vaqtida qutqardim va yashirdim hamda ularni yashash joylarini boy-badavlat qildim" degan bo’lsa ham, Malshum boshqa tiklanmadi, Mari esa o’z ahamiyatini yo’qotdi. Mil.avv. 1757 yili u Ashshur va Nineviyani zabt etdi. Bu haqda uning "Sanash formulalari" indamaydi, lekin uni qonunlar majmuasi dalolat beradi. Xammurapi "sutiylar"ga, subartu va Zagros tog’liklariga qarshi jang qiladi. Mil.avv. 1756 yili u ularni tor-mor etadi va Eshnunani bo’ysundiradi. Xammurapi mil.avv. 1750 yilida vafot etadi.

Shunday qilib, Xammurapining ko’p yillik harbiy va davlat faoliyati natijasida alohida quyi, markaziy va yuqori Mesopotamiyaning bir qismini o’z ichiga olgan alohida davlat tashkil topdi. Bu birlashma o’zining butunligida faqat

bir avlod ichida bo’lsa ham, u odamlar xotirasida uzoq saqlanib qoldi. Bobil to madaniyati yashnagan davrining oxirigacha mamlakatning an’anaviy markazi bo’lib qoldi va mamlakatning o’zi yana ikki ming yil mobaynida Bobiliston deb atalgan.

Ikki daryo oralig’ini davlatga birlashtirganida (Bobiliston) Xammurapi bo’sh joydan boshlamagan edi. Birlashtiruvning asosida Kudurmabug va Rim-sin 1 faoliyatlari tufayli zamin yaratildi, shuning uchun ham "Eski Bobil davri" tushunchasiga Larsa podshohligining gullab-yashnashi davrini ham kiritish mumkin.

Ayniqsa, qadimgi Mesopotamiya tarixida Xammurapi qonunlarining o’rni alohida ahamiyat kasb etadi. Xammurapi qonunlari to’plami mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish muammolarini echishga qaratilgan bo’lib, yirik toshga o’yib yozilgan. Qonunlar to’plami Urnoma, Ishtar, Eshnuna qonunlari asosida to’ldirilgan va o’zgartirilgan holda yangi moddalar bilan boyitilgan.

Qonunlar moddalari: jinoiy huquq, sud ishlari, huquqbuzarlik (o’g’irlik, talonchilik, bosqinchilik), harbiylar huquqi masalalariga qaratilgan. Ayrim boblarda esa savdo, garov huquqi, oilaviy huquq, mehnat huquqi muammolarini echimi berilgan. Qonun xulosasida Xammurapi podshoh yoki hukmdorning xalq oldidagi vazifasi, mavqei, xalqqa ko’rsatadigan yordami, boshqaruvda odilona hukm va adolat muammolari aks ettirilgan. Qonunda bosh masala: iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar masalasi bo’lib,

a) o’rmonlarni asrash, yog’och beruvchi daraxtlarni ko’paytirish, o’rmon yoki daraxtga zarar etkazgan odam o’lim jazosini olgan;

b) xo’jalikda chorvachilik masalasi: xususiy chorvachilikka e’tibor berilgan, mol o’g’irlansa, besabab o’ldirilsa va xo’jayinning aybi bilan mol kasal bo’lsa, qonun asosida aybdorlarga og’ir jazo qo’llanilgan;

v) sug’orma dehqonchilik, suvni asrab ishlatish, kanallar va suv saqlovchi havzalarni ko’paytirish kabi muammolarga qaratilgan [49, 143-b.].

Umuman, Xammurapi qonunlarida asosiy e’tibor adolat muammosiga qaratilgan bo’lib, adolat va insonlar huquqi himoyasi yuqori o’rin egallagan. Qonunni har bir moddasida adolat asosi o’z aksini topadi.

Xammurapi qonunlari asosida boshqaruv so’nggi Salon, Pisistrat qonunlarida ham o’z aksini topgan. O’rta asr Sharq xalqlari tarixida bu kabi adolatli boshqaruv tizimini Amir Temur davrida ko’ramiz. Temur tuzuklarida hokimiyatning kuchini qonunlarga qat’iy rioya qilinishida deb ko’rsatiladi. Bu haqda tuzuklarda "Hukumat qonunga tayanmaydigan hokimiyat, o’z mavqeini va kuchini uzoq vaqt saqlab qololmaydi" deyiladi. Tuzuklarda davlat boshqaruvini izchil tizimi berilishi bilan, "adolat" bilan ish ko’rishga e’tibor kuchaytirilgan.

Qonun ustuvorligi va adolat yuzasidan ish ko’rish bizning qonuniy asosimiz - Konstitutsiyamizda ham asosiy muammo bo’lib hisoblanadi. Umuman olganda, Xammurapi yashagan davr bundan 3,5-4 ming yillar aval oldin bo’lsa-da, umuman adolat yuzasidan ish ko’rish, davlat markazlashuvi va rivojlanishida muhim o’rin tutgan. Demak, biz ko’rib chiqqan qonunlar majmuasi shuni ko’rsatadiki, Xammurapi tuzgan qonunlar to’plamidagi ayrim qonunlar adolat o’rnatish, qonunga amal qilish kabi hamda insonlar huquqini to’g’ri himoya qilish boblari zamonga moslashtirilgan holda, antik, o’rta asrlar va hozirgi zamon tarixida ham o’z o’rnini topgan. Shuning uchun ham Xammurapi qonunlarini o’rganish hozirda ham ilmiy, ham tarbiyaviy tomondan ahamiyati kattadir.

3-BOB. QADIMGI MESOPOTAMIYa TsIVILIZATsIYaSINING JAHON TsIVILIZATsIYaSI TARIXIDAGI O’RNI

3.1. Mesopotamiya xalqlarining madaniyati

Mesopotamiya juda qadimiy va boy madaniyatga ega bo'lgan o'lka. Bu o'lkada turli xal, urug', qabila va elatlar yashaganlar. Mesopotamiyaliklar madaniyati shuning uchun xilma-xildir.

Mesopotamiya xalqlari madaniyatining shakllanishi miloddan avvalgi XI-IX ming yilliklarga borib taqaladi. Miloddan avvalgi VIII-V ming yilliklardan boshlab mesopotamiyaliklar madaniyati ravnaq topa boshlagan. Mesopotamiyada davlatlar tashkil topgach, Moddiy va ma'naviy madaniyat sohalarida yanada ulkan yutuqlarga erishiladi. Mesopotamiya xalqlari madaniyati qo'shni xalqlar madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Mesopotamiya xalqlarining eng katta yutuqlaridan biri bu yozuvning ixtiro qilinishi edi. Ilk yozuv miloddan avvalgi IV ming yillikda Janubiy Mesopotamiyada kashf qilingan. Bu erga ko'chib kelgan shumerlar ham ushbu yozuvni qabul qilganlar. U suratli yozuv bo'lib, aytilmoqchi bo'lgan so'z rasm bilan ifoda etilgan. Bu fanda *ieroglif* yozuvi deb nomlangan. Masalan qush so'zi qushning tasviri bilan, suv so'zi uch qator to'lqinsimon qatorlar bilan, yulduz so'zi yulduz tasviri bilan ifoda etilgan. Ammo suratli yozuvlar bilan ko'p tushunchalarni ifoda etib bo'lmagan. Turmush shumerlarning bu yozuvini soddalashtirishni talab qilgan.

Zamonlar o'tishi bilan Mesopotamiyada ponasimon shakldagi mixxat yozuvi kashf etilgan. Ular qotmagan loy sathiga o'yib tushirilgan. Ular lavha ustida ko'ndalang, tik va egri tushirilgan pona-mixlar shaklidagi belgilar yig'indisidan iborat yozuv tusini olgan. U 600 ga yaqin belgidan iborat bo'lgan. Bu yozuvning asoschilari shumerlar bo'lib, uni keyinchalik bobilliklar, assiriyaliklar ham qabul qilishgan. Bu yozuv keyinchalik butun Janubiy-G'arbiy Osiyo xalqlari orasiga tarqalgan, hatto Misr fir'avnlari ham bu yozuvdan foydalanganlar. [48, 13-b.]

Juda qadimdan boshlab Mesopotamiya mirzolari adabiy, tarixiy ilmiy mavzudagi gaplarni sopol, teri, loy lavhalar va boshqa buyumlarga ko'chirib yozib, o'ziga xos kitoblar yaratganlar. Bu kitoblardan esa ajoyib kutubxonalar tashkil etilgan. Bunday kutubxonalar Ur, Nippur, Nineviya, Bobil, Ashshur va boshqa shaharlarda bo'lgan. Bu jihatdan Assiriya podshosi Ashshurbanipolning Nineviyadagi kutubxonasi ajralib turgan. Unda 30 mingdan ortiq xatli lavha saqlangan bo'lib, Mesopotamiya madaniyati va tarixining ko'p tomonlari o'z ifodasini topgan [50, 37-b.].

Mesopotamiyaliklar qadim zamonlardan boshlab o'z maktablariga ega bo'lganlar. Bu maktablarda ko'proq badavlat kishilar, amaldorlar, o'ziga to'q kishilarning farzandlari o'qiganlar. Ammo maktabda erkin jamoadan chiqqan oddiy kishilar ham o'qigan bo'lsa kerak. Maktablarning quyi sinflarida adabiyot, til, gramatika o'qitilgan. Yuqori sinflarida esa matematika, geometriya, astronomiya, tibbiyot va veterinariya fanlari o'qitilgan. Maktablar davlatni boshqarish ishini amalga oshirishdagi xo'jalik va savdo xodimlari ham tayyorlagan. Maktablarda diniy dasrlar ham o'qitilgan. Shumer, akkad va ossur maktablarida mirzolar tayyorlashga ham katta ahamiyat berilgan.

Shunday qilib, Mesopotamiya maktablari maorif va madaniyat markazi hisoblangan. Bu maktablarda intizom ham ancha qattiq bo'lib, o'qituvchilar o'quvchilarni qunt bilan o'qishga undaganlar.

Qadimgi Mesopotamiya shahar va xarobalari qazilganda u erlardan arxiv va kutubxonalar topilgan. Loy va sopol lavhalardagi yozuvlar o'qilganda ularning bir qismi adabiy asarlar ekanligini aniqlagan. Mesopotamiyada adabiy asarlarning eng qadimgisi miloddan avvalgi IV ming yilliklarda yozilgan.

Shumer, Bobil va Assiriya adabiyoti qadimgi xalq og'zaki ijodiyotidan kelib chiqqan. Adabiy asarlar biniy ruhda ham, dunyoviy ruhda ham yozilgan. Mesopotamiya adiblari bizga «Dunyoning yaratilishi haqida mif», «Aguayya haqidagi doston, «Adapa haqidagi doston», «Etana haqidagi doston» kabi ko'plab

asarlar qoldirishgan [47, 82-b.]. U erda diniy, falsafiy va dramatik asarlar ham yaratilgan. Adabiy asarlarning mazmuni xilma-xil bo'lgan.

Markazlashgan Bobil davlati tashkil topgan vaqtda qohinlar-ruhoniylar Marduqni butun olamni yaratuvchi bosh xudo deb ta'riflaganlar. Bu «Dunyoning yaratilishi haqidagi» dostonda o'z ifodasini topgan. «Agushayya haqidagi dostonda» ma'budalar Ishtar va Saltu o'rtasidagi raqiblik hikoya qilingan. Mesopotamiyada yaratilgan eng mashhur dostonlardan biri «Gilgamesh haqidagi doston» bo'lib, unda Gilgamesh va Enkiduning do'stligi, qahramonliklari va sarguzashtlari haqida himkoya qilinadi. «Jafokash avliyo haqidagi doston»da bechora bir avliyoning og'ir kechmishi haqida hikoya qilsa, «Xo'jayinning qul bilan suhbati dostoni» esa ho'jayinning o'z quli bilan hayoti, mehnat va o'lim haqidagi munozaralardan iboratdir. Mesopotamiya adabiyoti boy merosga ega bo'lib qadimdan sharq va jahon xalqlari adabiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. [47, 85-86-b.]

3.2. Mesopotamiyada ilmiy bilimlar va shaharsozlikning rivojlanishi

Mesopotamiyada matematika, geometriya, astronomiya, tibbiyot, tarix va boshqa fanlarga qiziqish ancha erta boshlangan. Erlarni o'lchash, masofani aniqlash, hosilni hisoblash va savdo-sotiq ishlarini yuritish uchun matematika va geometriya kerak edi. Bu fanlar chorvachilik, dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan ham chambarchas bog'liq edi. Qadimgi mesopotamiyaliklar son va sanashni bilganlar, ya'ni birlik, o'nlik, yuzlik va mingliklarni bilganlar. 100 va 1000 larni alohida belgi bilan ifoda etganlar. Ular yilning 365 kundan, doiraning 360 bo'lakdan iborat ekanligini aniqlaganlar. [58, 112-b.]

Dehqonchilik, savdo-sotiq, chorvachilikni rivojlantirishda kun, oy va yillarni bilish zaruriyati astronomiyaning rivojlanishiga olib keldi. Olti-etti qavatli zikkuritlar – o'ziga xos observatoriyalar qurilib osmon jismlari, oy va quyoshning harakatlari kuzatilgan. Bunday observatoriya minoralari Ur, Uruq, Nippur, Bobil

va Akkad shaharlarida bo'lgan. Osmon jismlari harakatini kuzatish bilan astronom-qohinlar shug'ullanishgan. Qadimgi mesopotamiya astronomlari quyosh va oy tutilishi hodisalarini oldindan bilganlar. Ular quyosh yili 365, oy yili 354 kun ekanligini bilganlar. Demak, Mesopotamiya olimlari astronomiya taqvimini tuzganlar [58, 113-114-b.].

Mesopotamiyada tabiat fanlari sohasida ham ancha yutuqlarga erishilgan. Yozuvlarda bayon etilishicha, Shumer, Bobil, Assiriya va boshqa joylarning mirzolari o'simliklar, hayvonlar va minerallar ro'yxatini tuzganlar.

Miloddan avvalgi III ming yillikdayoq shumer tilida astronomiyadan ilmiy asar tuzganligi ma'lum. Mesopotamiya arxivi va kutubxonalaridan mamlakat tarixi va geografiyasiga oid ma'lumotlar topilgan. Xususan, Ashshurbanipal kutubxonasidan topilgan Misr, Urartu, Bobil va atrofdagi o'lkalar xaritasi shular jumlasidandir.

Qohinlar mamlakat va atrofda bo'lib o'tgan eng muhim voqealarning yillik ro'yxatini tuzib, podsholarning binokorlik faoliyatini ham yozib borganlar. Ayni paytda ilmiy bilimlar bilan birgalikda me'morchilik, haykaltaroshlik va rassom-naqqoshlik ham ancha rivoj topgan. Mesopotamiya shaharlarida ibodatxonalar, shoh saroylari, ma'muriy binolar va ajoyib observatoriyalar qurilgan. Mesopotamiyadagi odam, yarim odam – yarim buqa haykallari kishi diqqatini o'ziga tortadi. U erda bo'rtma rasm-naqqoshlik ham ancha rivoj topgan edi.

Qadimgi Mesopotamiyada tibbiyot va veterenariya ham erta rivoj topgan. Ikki daryo oralig'idagi hakimlar – tibbiyot xodimlari yurak, jigar, buyrak, tumov, qorin og'rig'i, bezgak, falaj, ko'z, quloq, tish, teri, sariq suv, siyodik yo'li, xotin-qizlar kasalliklari, shuningdek ruhiy kasalliklarni yaxshigina javolaganlar. Ayni paytda hakimlar singan, chiqqan suyak va et uzilgan joylarni davolashda ham katta yutuqlarga erishganlar. Mana shu kasalliklarni davolashda sodda va murakkab dorilar qo'llanilgan. Bu dorilar hayvon, hashorat, shifobaxsh, o'simlik, mineral moddalar va boshqa buyumlardan tayyorlangan. Bemorlarni davolashda silash, uqalash, yurish va kompress usullaridan ham keng foydalanilgan. [46, 156-b.]

Mesopotamiya tibbiyotining paydo bo'lishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Tibbiyot, jarrohlik, ko'z, ichki va boshqa maxsus tarmoqlarga bo'lingan. Tibbiyot xodimlari oldiga juda qattiq talab qo'yilgan. Xususan, Xammurapi qonunlarining birida jarroh bemorning shikastlangan joyini noto'g'ri kesib qo'ysa, yoki noto'g'ri davolasa uning qo'li kesib tashlanishi aytiladi. Tibbiyot ishlari bilan asosan ruhoniylar shug'ullanishgan. U erda uy hayvonlarini davolash ham keng rivojlangan. Bu veterinariya fanining rivojiga asos solgan. Xullas, Mesopotamiya tibbiyoti o'sha davrda etakchi o'rinni egallagan edi.

Mesopotamiya xalqlari eng qadimgi zamonlarda tabiatdagi buyumlar – suv, tosh, daraxt, hayovon va osmon jismlariga e'tiqod qilganlar. Davlat vujudga kelishi munosabati bilan ularning diniy e'tiqodi ham o'zgara borgan. Xudolarning ko'pchiligi odamsimon qiyofaga kirgan. Dastlabki ayol xudolar ustunlikka ega bo'lganlar. Xususan, ibtidoiy suv ofati ma'budasi ayol qiyofasida bo'lgan. Bu o'sha davrda ona urug'i mavqeini balandligi bilan izohlanadi.

Keyinchalik erkak xudolarning soni ortib borgan. Har bir shahar, qishloq, mahalla o'zining ilohiy homiysiga-xudosiga ega bo'lgan. Ammo ba'zi xudolar mamlakat miqyosida izzat-ikrom qilingan.

An – osmon, Ki – er xudosi hisoblangan. Hikoya qilinishicha, bu ikki xudo er-xotin bo'lib, ulardan havo xudosi Enlil tug'ilgan. U o'sib ulg'aygach, Erni idora qiladigan bo'lgan va xudolar avlodini vujudga keltirgan. Oy xudosini shumerliklar Ninnar, akkadliklar esa Sin deganlar. Quyosh xudosini shumerliklar Utu desalar, akkadliklar Shamash deb ataganlar. Venera sayyorasining xudosini shumerlar Ianna, akkadliklar o'z ma'budasi Ishtar bilan taqqoslaganlar. Ianna erdagi hosildorlik va muhabbat ma'budasi hisoblangan. Bobil ikki daryo oralig'ining markaziga aylangach, Marduq uning homiysi bo'lib qolgan. U bosh homiylikka ma'buda Tiamatni engib erishgan. [35, 44-b.]

Shunday qilib, Mesopotamiya ko'p xudolik mamlakat bo'lgan. Odamlar ularga e'tiqod qilib, bayram kunlarida qurbonliklar qilishgan. Dastlab qurbonlikka odamlar so'yilgan, keyinchalik qo'y-qo'zilar qurbonlik qilingan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mesopotamiya jahon xalqlari tarixi va madaniyatining eng qadimgi markazlaridan biri bo'lgan. Bu o'lkada davlatlar boshqa o'lkaga qaraganda ertaroq vujudga kelgan. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik ham ilk shu mamlakatda qaror topib, hunarmandchilik va savdo-sotiq ravnaq topgan.

Texnologiya, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi er.av. 1 mingyillikda Mesopotamiyada yirik shaharlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu yirik shaharlar mamlakatning ma'muriy, hunarmandchilik va madaniy markazi hisoblangan. Mesopotamiyaning eng yirik shahri Nineviya bo'lib, u Dajla daresining bo'yida qurilgan va Assiriyaning poytaxti bo'lgan. Unda 170 ming kishi istiqomat qilgan. Bobilda esa 200 mingdan ortiq kishi yashagan. Bobil shahri ham yirik ma'muriy va madaniy markaz bo'lgan. Uylar devorlarining qalinligi ikki metrga borib etgan.

Shunday qilib, Qadimgi Mesopotamiyaning madaniyatida me'morchilik, san'at, yozuv, adabietda erishilgan yutuqlar butun qadimgi Yaqin Sharq uchun namuna bo'lib xizmat qilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dunyo tarixidagi ilk tsivilizatsiya o'choqlaridan biri hisoblangan Qadimgi Mesopotamiya hududlari asosan hozirgi Iroq erlariga to'g'ri keladi. X1X asrning o'rtalarida boshlangan Mesopotamiya yodgorliklarini o'rganish borasida hozirgi kunga qadar samaralai ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar orasida L.Vulli, S.Lloyd, F.Safar, J.Outs, R.M.Munchaev, V.M.Masson, A.L.Perkine, G.Chayld, I.M.Lyakonov, A.I.Tyumenkov kabi tadqiqotchilarning ishlari muhimdir. Bu borada ayniqsa Mesopotamiya pasttekisligining sharqiy chegaralarida joylashgan Ali Qush manzilgohi tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Bundan tashqari ilmiy adabiyotlarda Xassun madaniyati dem nom olgan Ikki daryo oralig'iga xos madaniyat mil.avv. VI ming yillikning o'rtalari va oxirlari bilan sanaladi. Ushbu madaniyat sohiblari asosan dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligi yuritganlar. Olib borgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Xassun moddiy madaniyatining muhim tomoni paxsa-bloklardan

qad ko’targan uylar hisoblanadi. Uylarning rejaviy tuzilishi ko’p hollarda to’g’ri burchakli, ayrim hollarda yarim aylana ko’rinishda. Topilmalar orasida hayvon suyaklari, qo’pol sopol idishlar, dehqonchilik bilan bog’liq qurollar va ayniqsa mis buyumlar ko’pchilikni tashkil etadi. [52] Xassun madaniyatini «shahar madaniyati» deb ta’riflashga asos bo’lmasa-da, ushbu yodgorlik jamiyat boshqaruvida ma’lum ahamiyatga ega bo’lib, aholisi o’troq turmush o’tkazganligi shubhasizdir. [8, 56-b.]

Mesopotamiya tsivilizatsiyasida muhim ahamiyatga ega bo’lgan Alaf madaniyati ham mil.avv. VI ming yillikka oid bo’lib, ushbu madaniyat sohiblari Ikki daryo oralig’iga xos dehqonchilik va chorvachilik xo’jaligi hamda madaniy an’analarni saqlab, ularni yangi asosda rivojlantirganlar. Ushbu madaniyatning bosqichma-bosqich rivojlanishi Janubiy Mesopotamiyadagi mil.av. V-IV ming yillikka oid Eredu qazishmalari tasdiqlaydi [23, 46-59-b.]. Bu erdan topilgan idishlar, taqinchoqlar va boshqa topilmalar Ur va Uruk topilmalariga ancha o’xshash bo’lib, ko’pchilik tadqiqotchilarning fikricha, qadimgi Shumerning uchta muhim markazlari bo’lgan Eredu, Ur va Uruk aynan ana shu davrdan o’z taraqqiyot yo’lini boshlaydi. [40, 65, 64, 60]

Er.av. V ming yillikning so’nggi choragi – IV ming yillikning birinchi yarmiga kelib Janubiy Mesopotamiya taraqqiyotida yangi bosqich boshlanib, ushbu bosqich sug’orish kanallari tartibi, htsunarmandchilikdagi kulolchilik, metallga ishlov berish, zargarlik, to’qimachilik kabi sohalarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi. Aholi sonining o’sishi natijasida kichik manzilgohlar bilan birgalikda maydoni 10 gektargacha bo’lgan yirik markazlar paydo bo’ladi. [50, 87-b.] Maydoni kengaygan manzilgohlar nafaqat arof qishloq xo’jalik markazlari, balki hunarmandchilik, savdo-sotiq markazlashgan haqiqiy ma’nodagi shaharlarga aylanib boradi. Ushbu ilk shaharlarning markazi ibodatxona, ayrim hollarda butun ibodatxona majmui hisoblangan.

Er.av. IV ming yillikning oxiri – III ming yillikning boshlariga kelib, Qadimgi Mesopotamiya ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga katta o’zgarishlar ro’y beradi.

Bu davr Jamdot Nasr madaniyati davri bo'lib, mudofaa-fortifikatsiya inshootlar qurila boshlanadi. Ibodatxona va saroylar mustahkam mudofaa devorlari bilan o'rab olinadi.

Er.av. III ming yillik boshlariga kelib, Mesopotamiyada ko'plab turli tilli xalqlar yashar edilar. Janubda Shumer, Dajla va Frotning o'rta oqimida akkadlar, shimolda xurritlar yashardilar. Mesopotamiyaning turli hududlarida manzilgohlar rivojlanib, Ashshur, Mari, Nineviya kabi yirik markazlari paydo bo'ladi.

Mesopotamiyaning janubida Eredu, Ur, Larsa, Uruk, Lagash, Umma, Shuruppak, Issin, Nippur, Kish kabi shahar-davlatlar mavjud edi. [53, 119-b.] Ushbu shahar-davlatlar asosida keyingi davrlarda qudratli Bobil va Assiriya davlatlari vujudga keldi.

3.3. Mesopotamiya tsivilizatsiyasining jahon tarixidagi o'rni

Mesopotamiya – jahon tsivilizatsiyasi va qadimgi shahar madaniyatining ilk o'choqlaridan biri. Bu madaniyatning ilk asoschilaridan biri shumerlar bo'lib, ularning yutuqlarini bobilliklar va assiriyaliklar o'zlashtirib, davom ettirdilar. Mesopotamiya madaniyatining manbalari er. avv. IV ming yillikda shaharlar paydo bo'lishi bilan boshlandi. Uning uzoq yashash davrida unga xos ichki birlik, an'analarni merosiyligi, uning unsurlarining ajralmas aloqasi saqlanib qoldi. Mesopotamiya madaniyatining boshlang'ich davri o'ziga xos yozuvning shakllanishi bilan belgilanadi. Keyinchalik bu yozuv mixxatga aylanadi. Mixxat Mesopotamiya tsivilizatsiyasining asosiy ildizi bo'lib, uning barcha jihatlarini birlashtirgan an'analarini saqlab qolish imkoniyatini berdi.

Er.avv. IV-III ming yilliklarda shumer yozuvi paydo bo'ldi. Taxminlarga ko'ra bu yozuv shumerlar Mesopotamiyaga kelganga qadar noma'lum xalq tomonidan kashf qilingan. Shumerlar bu yozuvni tsivilizasiya xizmatiga qo'ydilar [48, 7-b.].

Dastlab shumer yozuvi piktografik shaklda alohida buyumlar, tasvirlar tarzida ifodalangan. Shunday yozuvdan eramizdan avvalgi III ming yillikdan boshlab foydalanilgan. Piktografiya juda sodda bo'lib, haqiqiy yozuv emas edi, u so'zlarni ifodalamas edi. Sekin-asta u mixxatga aylandi. Mixxatda 600 belgi bor edi [48, 19-b.].

Er. avv. XXIV asrda ilk batafsil yozilgan shumer matnlari paydo bo'ldi. Akkad tili janubiy Mesopotamiyada er.avv. III ming yillikning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. Shumer va akkad tillari bir-biridan ko'pgina so'zlarni o'zlashtirib oldi. Er. avv. III ming yillikning oxirida qadimgi Shumer–akkad lug'atlari tuzilgan. Shumer yozuvi keyinchalik shumer–akkad yozuvini butun Old Osiyo xalqlari o'zlashtirib oldilar.

Akkad tili Old Osiyo xalqaro diplomatiya tiliga aylandi. Qadimgi Meosopotamiyada loy mo'l-ko'l edi. Loy taxtacha yozuv uchun asosiy manba bo'lib, xizmat qildi. Taxtacha loydan yasalib tuzlardan kuydirish yo'li bilan tozalangan. Mesopotamiyada o'rmon bo'lmaganligi sababli, faqat eng muhim matnlar yozilgan loy taxtachalar (podsho yozuvlari, kutubxonada saqlanishi lozim bo'lgan asarlar) kuydirilgan. Qolgan taxtachalar oftobda quirtilgan. Odatda, taxtachalar etti-to'qqiz sm. uzunlikda bo'lgan. Yozuvlar ba'zida tosh va metall taxtachaga ham yozilgan [48, 20-21 b.].

Er.avv. I ming yillikda bobillik va assiriyaliklar yozuv uchun teri va chetdan keltirilgan papirusni ishlata boshlaganlar. Shu vaqtni o'zida Mesopotamiyada yog'ochdan qilingan uzun taxtachaga mum surtib mixxat belgilarini tushirganlar. Er. avv. VII asrdan boshlab oromiy tili va yozuvi kirib kelgan paytda mixxat yozuvlari o'limga yuz tutdi.

Bobil va Osuriya madaniyatining eng muhim yutuqlaridan biri kutubxonalar edi. Er. avv. II ming yillikdan boshlab Ur, Nippur shaharlarida adabiy va ilmiy matnlardan iborat ilk kutubxonalar paydo bo'ladi [47, 5-b.].

Qadimgi Sharqning eng mashhur kutubxonasi Ashshurbanipalning (er.avv.669-635 yillar hukmronlik qilgan) Nineviya shahrida to'plangan 30.000 taxtachadan iborat kutubxonasi bo'lgan [55, 123-b.].

Loy taxtachalarga podsho annallari, muhim tarixiy voqealar xronikasi, qonunlar to'plami, adabiy asarlar va ilmiy matnlar yozilgan. Ashshurbanipal kutubxonasining alohida ilmiy qimmati shundaki, bu kutubxonada dunyoda birinchi marta kitoblar tizimli to'plangan va ma'lum tartibda joylashtirilgan. Ko'pgina kitoblar bir necha nusxada mavjud. Katta matnlar bir xil hajmdagi loy taxtachalarda bayon qilingan. Shunday matnlar qirqdan yuztagacha taxtachaga yozilgan. Har bir taxtachada undan foydalangandan so'ng o'z o'rnida qaytarish imkonini bergan tartib raqamlari qo'yilgan [55, 126-b.].

Qadimgi Mesopotamiya arxivlar makoni bo'lgan. Eng qadimgi arxivlar er.avv. III ming yillikning birinchi choragiga tegishli. Bu davrda arxiv ma'lumotlari yozilgan taxtachalar namlikdan saqlash uchun mumlangan savatlarda saqlangan. Er.avv. XIX asrga oid Ur shahri arxivi maxsus xonada yog'och tokchalarida saqlangan. Er.avv. XVIII asrga oid boy arxiv Mari podshosi saroyidan, Uruk shahridan er. avv. VIII-VI asrlarga oid 2500 xo'jalik hujjatlari arxivi topilgan [59, 67-68-b.].

Qadimgi Shumer va keyingi Bobil maktablarida asosan davlat va ibodatxonalar uchun kotiblar tayyorlangan. Maktablar ta'lim va madaniyat o'chog'i bo'lgan. Maktabda asosan shumer tili va adabiyoti o'qitilgan. Yuqori sinf o'quvchilari kelajakda tor mutaxassislashuvga qarab grammatika atsronomiya va matematikadan bilim olganlar. O'zini fanga bag'ishlamoqchi bo'lgan o'quvchi bo'lsa huquq, astronomiya, tibbiyot va matematikani o'rgangan. Maktabda jismoniy jazo keng qo'llanilgan. Mesopotamiya maktablari o'quvchilarining sinf xonasida fanlarni o'rganish uchun loy taxtachalarda yozgan mashq matnlari bizgacha etib kelgan.

Shumer adabiyotiga oid epik asarlar, afsonalar, madhiya, doston, ertak va maqollar to'plami bizgacha etib kelgan. Shumer shahrini qo'shni qabilalar

hujumlari natijasida halokati to'g'risida ma'lumot beradigan asarlar alohida o'rin tutadi. «Ur shahri aholisining falokati motam yig'isi» (er.avv. XX asr oxiri) asarida ayollar, qariyalar va bolalarning ochlikdan qiynalishi, yong'indan qolgan uylarda halok bo'lganlarni tafsilotlari batafsil tavsiflagan [66, 243-b.].

Shumer adabiyotining eng mashhur-namunasi afsonaviy qahramon Gilgamesh to'g'risidagi epik afsonalar to'plamidir. Bu asar akkad tilida qayta ishlangan nusxada to'laroq ko'rinishda Ashshurbanipal kutubxonasida topilgan. Er.avv. II ming yillik oxirida Bobilda akkad tilida yozilgan falsafiy mavzudagi «Ha, men donolik ilohini sharaflayman» asari saqlanib qolgan. U aybsiz, mashaqqat chekkan kishining shafqatsiz taqdiri to'g'risida hikoya qiladi [66, 244-b.].

Shu mavzuga yaqin «Bobil teodisiyasi: (so'zma-so'z tarjimasi, «xudoni oqlash») poemasi er.avv. IX asrda paydo bo'lgan. Uning muallifi podsho saroyida koxin bo'lib xizmat qilgan, Esagilkuni -Ubbib nomli kishi bo'lgan. Asarda bobilliklarning qiziqtirgan diniy-falsafiy g'oyalar o'z aksini topgan. Er.avv X asrga oid «Qul menga bo'ysun» asari hayotga umidsizlik ruhida yozilgan. U xo'jayinning o'z qo'li bilan dialogi tarzida yozilgan [66, 245-246-b.].

Katta badiiy qiymatga ega bo'lgan Assiriya annallari assur jangchilari bo'lgan begona davlatlar tabiati to'g'risida ritmik tilda yozilgan. Eng mashhur Assiriyalik asari bu Assiriya podsholarining dono kotibi va maslahatchisi Axikar to'grisidagi qissadir. Kissa to'liqroq holda suriya tilida saqlanib qolgan [66, 248-b.].

Qadimgi Mesopotamiya mafkuraviy hayotida din hukmron o'rin egallagan. Er.avv. IV-III ming yilliklar chegarasida Shumerda batafsil ishlab chiqilgan, keyinchalik Bobilda o'zlashtirilib, rivojlantirilgan teologik tizim yuzaga keladi. Har bir shumer shahri o'z xudo homiysiga ega bo'lgan. Bundan tashqari, umumshumer shaharlari sig'ingan xudolar bo'lgan. Bu osmon xudosi Anu, er xudosi Enlil, suv xudosi Enki yoki Ea kabi ilohlar tabiat tsixiyasi kuchlarini aks ettirganlar. Ko'pincha ular koinot jismiga o'xshatilgan. Har bir xudoga alohida

vazifa yuklatilgan. Enlil taqdir xudosi, shaharlar asoschisi hamda motiga va omoch kashfiyotchisi, quyosh xudosi Utu (Akkad mifologiyasida Shamash), Oy xudosi Ninnar, Enlilning o'g'li sevgi va hosildorlik xudosi Innana (Bobil va Osuriya panteonida Ishtar) abadiy hayot, tabiat xudosi Dumuzi (Bobilda-Tammuz) keng tarqalgan [55, 90-94 b.].

Urush xudosi kasallik va o'lim xudosi Nergal (Marsen) sayyorasiga o'xshatilgan. Bobil bosh xudosi Marduk – Yupiter bilan Nabu (Mardukning o'g'li) donolik, yozuv va hisob xudosi Merkuriy sayyorasiga o'xshatilgan.

Xudolardan tashqari, ko'p sonli ezgulik devlariga sig'inilgan. Turli xil kasalliklar sababchisi bo'lgan yovuz devlarni rahmdil qilishga harakat qilganlar. Devlar yarim odam, yarim hayvon tarzida tasvirlanganlar. Odamlar o'zlarini odam boshli, qanotli ho'kiz sifatida ifodalaganlar. Qanotli ulkan haykallar Assiriya podsholari saroylari kirishini qo'riqlaganlar [55, 96-b.].

Shumer va akkadlar u dunyoga ishonganlar. Ularning tasavvurida u dunyo soyalar podsholigi qaysiki, o'liklar ochlik va chanqoqlikdan qiynaladilar. Loy, chang bilan ovqatlanadilar. Shuning uchun marhumlarning bolalari ularga qurbonlik keltirishga majburdirlar.

Qadimgi Mesopotamiyada dunyoning ilmiy bilishda ma'lum yutuqlarga erishildi. Bobilda ayniqsa, matematika fanlari amaliy maqsadlar uchun yuzaga kelib, yuqori darajada rivojlanadi. Qadimdayoq, bobilliklar zikkuratlarning yuqori qavatlaridan turib osmon jismlarini muntazam kuzatganlar. Ana shu ko'p asrlik kuzatishlari natijasida matematik-astronomiya vujudga keldi. Astronomlar yulduzlar o'rtasidagi masofani astronomik hisob-kitob qilganlar. Bobilda ko'p sonli astronomik jadvallar vujudga kelgan. Shu davrda Bobilda mashhur astronomlar Naburian va Kiden yashaganlar. Naburian oy fazalarini aniqlash tizimini ishlab chiqdi. Kiden quyosh yilini 365 kun, 5 soat 41 minut va 41,6 sekund xisobladi. U yil hisobi davomiyligida bor yo'g'i 7 minut, 17 sekundga xato qilgan. Astronomiya astrologiya bilan bog'langan edi [47, 32-b.].

Bizgacha juda ko’p Bobil tibbiyot matnlari etib kelgan. Mesopotamiya vrachlari chiqqan va singan suyak bo’g’inlarini davolay olganlar, lekin odamning ichki kasalliklarni davolay olmaganlar. Er. avv. III ming yillikdayoq mesopotamiyaliklar Hindistonga boradigan yo’lni, er. avv. I ming yillikda Efiopiya va Ispaniyaga boradigan yo’lni bilganlar. Bizgacha etib kelgan xaritalar bobilliklarning o’z geografik bilimlarini tizimga solishga harakat qilganliklarini ko’rsatadi.

Qadimgi Mesopotamiyaning san’atini shakllanishi va keyingi taraqqiyotiga shumerlarning badiiy an’analari hal qiluvchi rol o’ynaydi. Tosh o’ymakorlik er.avv. III ming yillik boshlarida shakllandi. Toshga naqshlar o’yish (gliptika) er.avv.I asrigacha yuksak darajada rivojlandi. Er.avv. XXIV-XXIII asrlarda Mesopotamiya yagona davlat bo’lib, birlashgan paytda podsholarning ideallashtirilgan portret-tasvirlari paydo bo’ladi [44, 258-b.].

Er.avv. II ming yillik boshlaridan qurbonlik keltirish, saroy hayoti manzaralari tasvirlangan freska san’ati rivojlanadi. Mesopotamiya san’ati er.avv. VIII-VII asrlarda Assiriya davlatining gullab-yashnagan davrida o’zining yuqori cho’qqisiga chiqadi. Bu asosan relef san’atida o’z aksini topgan. Bu davrda ulug’vor saroy va ibodatxonalar barpo qilina boshlandi.

Er.avv. I ming yillikda Mesopotamiyada yirik savdo-hunarmandchilik madaniyat markazlari bo’lgan katta shaharlar paydo bo’ladi. Mesopotamiyadagi assur podshosi Sinaxxreb tomonidan er. avv. 705-681-yillarda qurilgan, maydoni bo’yicha Old Osiyoda eng katta shahar Assiriya poytaxti Nineviya edi. Shahar 729,7 ga erni egallab, shaharda 170 ming aholi yashagan [44, 261-b.].

Mesopotamiyada shisha ishlab chiqarish juda erta er.avv. XVII asrda boshlanadi, temirdan foydalanish esa, kechroq er.avv. XI asrga boshlanadi. Mesopotamiyaning ilmiy bilimlari, san’ati, me’morchiligi, dini, yozuvi va adabiyoti, qadimda ko’pgina sharq xalqlari madaniyati ravnaqining o’lchov mezoni bo’lib xizmat qildi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, Mesopotamiya madaniyati yutuqlarining boshqa hududlarga tarqalishi haqidagi dastlabki dalillar er.avv. III mingyillikka borib taqaladi. Bu davrda Akkad imperiyasi vujudga kelgan edi. Yuoshqa dalil sifatida esa shu hol xizmat qiladiki, tarixiy manbalarga ko’ra, Elam davlatining poytaxti Suza shahrida (janubi-g’arbiy Eron) nafaqat mixxatdan, balki akkad tili va Mesopotamiyada qabul qilingan ma’muriy tizimdan ham foydalanishgan. O’sha zamonda varvarlarning etakchisi Lullubey Akkaddan shimoli-sharqda akkad tilidagi yozuv uyib yozilgan stelani o’rnatilgan edi. Markaziy Mesopotamiyaning xurrit hukmdori mixxatdan o’z ona tilida matnlar yozish uchun foydalanilgani ma’lum [54, 115 b.]. Xurritlar tomonidan o’zlashtirilgan matnlarning ko’pchiligi saqlanib, keyinchalik Onato’lidagi xettlarga berilgan edi.

Xuddi shunday vaziyat Xammurapi hukmronligi davrida ham shakllanadi. Bizning kunimizgacha akkad tilidagi yuridik va tarixiy matnlar saqlanib qolgan bo’lib, ular amoriy-xurritlar markazi Alalaxda (Shimoliy Suriya) topilgan edi. Bu esa mintaqada Bobilning ta’siri haqida dalolat beradi.

Xuddi o’shanday madaniy yaxlitlik, birmuncha kengroq miqyosda, er.avv. II ming yillik o’rtalaridagi siyosiy parokandalik sharoitlarida kuzatilgan. Bu davrga kelib Onato’li, suriya, Falastin, Kipr va xatto Misrda ham mixxat va akkad tili millatlararo (xalqlararo) muomala vositasi sifatida qo’llanilgan. Bundan tashqari, turli tillar, jumladan, xurrit va xett tillari ham, mixxat yozuvidan foydalana boshlashgan.

Er.avv. I ming yillikda mixxat boshqa tillarga, xususan, urartu, qadimgi fors tiliga ham kirib keladi.

Yozuv bilan birgalikda vositachi sifatida turli g’oyalar ham yoyilgan. Bu avvalambor, yurisprudentsiya, davlat boshqaruvi, diniy tafakkur va maqollar, matallar, asotirlar, dostonlar kabi adabiyot turlariga xos jarayon edi. Gilgamesh haqidagi dostonning Akkad tilidagi fragmentlari uzoq o’lkalarga borib etgan. Jumladan, bu doston parchalari xettlar poytaxti Xattus (hozrgi Bogazkey, Markaziy

Turkiyaning shimoli) va Megiddo (Isroil hududida) degan joylarga tarqalgan. Gilgamesh haqidagi doston xurrit va xett tillariga tarjima qilinganligi ma’lum [28].

Mesopotamiya madaniyatining tarqalishi nafaqat mixxatni o’zlashtirib olish bilan bog’liq edi. Uning namunalari Gretsiyagacha etib borib, u erda hayvonlar haqidagi masallar o’zlarining akkad tilidagi prototiplarini qaytargan..Gesiodning “Teogoniya” asaridagi ayrim qismlar xett, xurrit va oqibat natijada bobil manbalariga borib taqaladi. Odisseya va Gilgamesh haqidagi dostondagi kirish qismlari ham o’xshashligi Mesopotamiya madaniyatining uzoq o’lkalarga tarqalgani haqida dalolat beradi.

Bibliya (Injil) dagi Borliq Kitobining dastlabki boblari va ilk mesopotamiyalik matnlar o’rtasida ham o’xshashliklar aniqlangan. Bularning yorqin namunalari bo’lib, xususan, Dunyo yaratilishidagi voqealarning tartibi, Edem (Jannat) geografiyasi xususiyatlari, Bobil minorasi haqidagi rivoyat, suv toshqini haqidagi rivoyat xizmat qilib, ular Gilgamesh haqidagi dostonning qadimgi taxtachalarga yozilgan ayrim qismlarida ham uchraydi [28].

Xettlar Onato’liga kelishlari davridan boshlab mixxatdan keng foydalanishgan, uni nafaqat o’z tillaridagi, balki akkad tilidagi matnlarni yozishda qo’llashgan. Bundan tashqari, xettlarning qonunchilik asoslari ham Mesopotamiyadan taqlid qilib olingan va keyinchalik uning asosida o’zlarining qonunlar majmuini yaratishgan. Suriyadagi shahar-davlat Ugaritda ham mahalliy g’arbiy semit lahjasi va alifbo yozuvi turli adabiy asarlar, jumladan epik va diniy asarlarni yozishda qo’llanilgan. Onunchilik va davlat boshqaruvi haqida gap borganda esa ugaritlik mirzolar akkad tiliga murojaat qilishgan. Xammurapining mashhur devori Bobilning vayronalarida emas, balki uzoq Elam poytaxti – Suza shahridan topilgan, u erga u qimmatli o’lja sifatida etkazilgan.

Mesopotamiya madaniyatining yorqin dalillari Bibliya (Injil) da ham uchraydi. Yahudiylar va xristianlar dinlari Mesopotamiyada shakllangan ma’naviy yo’nalishga qarshi turishgan bo’lsalar-da, Bibliyada so’z ketayotgan qonunchilik va boshqaruv usullarida mesopotamiyalik prototiplarning ta’siri ko’rinib turadi.

O’z qo’shnilari kabi, yahudiylar Hosildor yarim oy mamlakatlariga xos bo’lgan bo’lgan qonunchilik va ijtimoiy qoidalarga bo’ysunishgan va rioya qilishganki, bu qoidalar mesopotamiya qonun-qoidalariga borib taqalishi olimlar tomonidan tasdiqlab berilgan [49, 7-b.].

Demak, Mesopotamiya tsivilizatsiya dunyodagi eng qadimgi tsivilizatsiyalardan hisoblanib, uning yutuqlari va ta’siri boshqa o’lkalarga ham yoyilgan.

XULOSA VA TAVSIYaLAR

Bashariyat tarixining keyingi rivojini belgilab bergan muhim bosqichlardan biri – o’zlashtirma ovchilik-baliqchilik va termachilik iqtisodiyotdan ishlab chiqaruvchi xo’jalikka o’tilishi, uning asosiy shakllarining rivoji va tarqalishi hisoblanadi. Bu jarayonlar eng qadimgi davr tarixida yangi bosqichning boshlanishiga asos soldi va bundan yuz ming yillar ilgarigi evolyutsiyadan printsipial jihatdan farq qilardi. Ular qadimgi jamiyat turmushining barcha sohalarida o’zgarishlar yasadi. Ikkinchi jahon urushidan so’ng arxeologik materiallarning to’planishi bu davrni davrlashtirishga asos soldi. Taniqli ingliz arxeologi Vir Gordon Chayld o’zlashtirma iqtisodiyotdan ishlab chiqaruvchi

iqtisodiyotga o’tish davrining tarixiy ahamiyatini ta’kidlab, uni «neolit inqilobi» deb atadi. Yaqin Sharqda tadqiqotlar olib borgan taniqli amerikalik olim Robert Breydvud esa eng qadimgi tarixni oziq-ovqatni o’zlashtirish va oziq-ovqatni ishlab chiqarish davrlariga bo’lib, ishlab chiqarish davrida bir qator bosqichlarni ajratib ko’rsatdi. XX asr 60-70 yillariga kelib, arxeologik qazish ishlari natijasida materiallar birmuncha ko’payadi. Yaqin Sharq, Old va Kichik Osiyoda dehqonchilik va chorvachilikning shakllanish yo’llarini aniqlash to’plangan materiallarni har taraflama tahlil qilish asosida o’rganiladi. Bunda arxeologlardan tashqari paleogeograflar, paleozoologlar, antropologlar va paleobotaniklar ham ishtirok etishmoqda. Xullas, bu xaqda rus, ingliz, amerika, frantsuz, daniya va boshqa tadqiqotchilar bildirgan fikr-mulohazalar bashariyat tarixi uchun o’zlashtirmadan ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotga o’tish muhimligini tan olishga asoslanadi.

Ziroatkorlar, ovchilar va baliqchilar jamoachi eng qulay tabiiy atrof-muhit sharoitlarida ham son jihatidan va ishlab chiqarish imkoniyatlari jihatidan chegaralangan bo’ladi. U tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida takomillashib boradi. Qulay ekologik vaziyatlarda (dengiz qirg’oqlari, poda-poda hayvonlar istiqomat qilishi) manzilgohlar ko’p vaqt ichida mavjud bo’ladi. Biroq ovchilar va ziroatkorlar jamoasi son jihatidan o’sib borishi bilan tabiiy resurslarni sifat jihatidan o’zgartira olmaydi. Shuning uchun ular boshqa qulay va hayvon hamda o’simliklar mo’l-ko’l bo’lgan joylarga ko’chib, u erda yangi manzilgohlarni barpo etadilar. Natijada jamoalar bir-birlaridan uzoqlashib qoladilar. Ular orasida doimiy ayirboshlash va ixtisoslashuv qiyin kechadi. Eng qadlimgi davrlarda jamoa a’zolarining ko’pchiligi oziq-ovqat mahsulotlarini izlab topishda ishtirok etgani tufayli, inson ehtiyojlari ham chegaralangan edi.

Ishlab chiqaruvchi xo’jalikka o’tilgandan so’ng jamoa hayoti tubdan o’zgaradi. V.G.Chayld bu jarayonni tavsiflab, «u dastlabki inqilob bo’lib, inson iqtisodiyotini o’zgartirdi, inson o’z oziq-ovqat zahirasi ustidan nazorat qila boshladi» [70], deydi. Inson o’zi oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlay boshladi,

ishlab chiqarishni kengaytirdi. Inson imkoniyatlari o'sib, faoliyat doirasi ham kengaya bordi. Aholi son jihatidan o'sdi. Hunarmandchilik kurtaklari paydo bo'ldi. Madaniy o'simliklar va uy hayvonlarining yovvoyi ajdodlari tarqalgan joylarda ular xonakilashtirildi va madaniylashtirildi. Bunday markazlardan biri Mesopotamiya bo'lib, u erdagi eng qadimgi davlatchilik kurtaklari Xassun, Samarra, Xalaf va El-Ubeyd madaniyati hisoblanadi.

Bu madaniyatlar Shimoliy Mesopotamiya, Falastin, Suriya, Turkiya, Eron hududlarini qamrab olgan mintaqaga kirib, arxeologlar uni «Hosildor erlar yarimoyi» deb atashgan. Aynan shu hududda ilk dehqonchilik manzilgohlari kashf etilib, ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot kurtaklari o'rganilgan [66].

Bugungi kunda ko'plab materiallar hanuz turli muzeylarda ko'milib yotibdi va tarixchi hamda arxeolog olimlarning chop etilmagan kundaliklarda yashirinib yotibdi. Oliy o'quv yurtlarida, umumta'lim maktablarda Qadimgi Sharq tarixi «Jahon tarixi» kursi bo'yicha o'qitiladi. Ayniqsa oliy o'quv yurtlaridagi tarix yo'nalishlarida o'qitilayotgan «Neolit davri tarixi», «Jahon tsivilizatsiyalari tarixi», «Qadimgi dunyo tarixi» kurslarini o'tishda Misr tsivilizatsiyasi bilan birgalikda Mesopotamiya dunyodagi eng qadimgi tsivilizatsiya o'choqlaridan hisoblanadi. Asosan tsivilizatsiya tarixini o'tish va o'rganish uchun chop etilgan darslik va o'quv qo'llanmalarida madaniyat rivoji bronza davridan boshlab o'rganiladi. Undan ilgari nima bo'lganligi haqida esa juda kam, qisqa ma'lumotlar keltiriladi, xolos.

Biz bitiruv-malakaviy ish mavzusi sifatida tanlab olgan Mesopotamiya tsivilizatsiyasi neolit davridayoq O'rta Er dengizi bo'ylarida shakllangan. Qadimgi Mesopotamiya tsivilizatsiyasiga oid materiallar asosan rus tilida bo'lib, o'zbek tilida juda kam topiladi. Asosan darslik va o'quv qo'llanmalardagi ma'lumotlar bilan cheklanib qolishga to'g'ri keladi.

Shunday bo'lsa-da, Qadimgi Mesopotamiya tarixi va tsivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini mavjud adabiyotlar, Internet ma'lumotlari asosida ochib berishga harakat qildik. Mazkur ishimizda keltirilgan ma'lumotlardan tarix fani

o’qituvchilari ma’ruzalar yozish uchun, talabalar esa kurs ishlari, referatlar yozish uchun foydalanishadi degan umiddamiz.

Mavzuni o’rganish yuzasidan qichqacha tavsiyalar keltiramiz.

T A V S I Ya L A R:

«Qadimgi Mesopotamiya tsivilizatsiyasi» deb nomlangan mazkur bitiruv-malakaviy ishimizda keltirilgan ma’lumotlardan «Qadimgi dune tarixi», «Jahon tsivilizatsiyalari tarixi», «Epigrafika», «Jahon madaniyati tarixi» kabi fanlarni o’qitishda qo’shimcha material sifatida foydalanish mumkindir.

Ishimizda Qadimgi Mesopotamiyada yozuvning paydo bo’lishi va rivoji haqida kam ma’lumot berilgani bois, tavsiya qismida bu mavzuda yangi pedagogik texnologiyasi asosida ishlanma keltirishni lozim deb bildik.

Asosiy savol:

1. Shumerlar mixxati

Mavzu bo’yicha tayanch tushuncha va iboralar:

Ossuriy-bobil yozuvi, mixxat, Shumer kutubxonasi, Gilgamesh

Mavzuga oid muammolar:

2. Mesopotamiyada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida loy taxtachalarda, qoyatoshlarda o’yib yozilgan yozuvlar topilgan. Bu yozuvlarni bir qator olimlar o’rgangan. Aytingchi, Mesopotamiyada qanday yozuv mavjud bo’lgan? Bu yozuvga doir yodgorliklar qaerdan topilgan? Ularda nimalar haqida gap boradi?
3. Shumerlar yozuvi ham ossuriy-bobil til oilasiga mansub deb hisoblanadi. Shumerlar mixxat tizimi assiriyaliklar mixxatidan farqi nimada bo’lgan?

1-savol bo’yicha dars maqsadi:

Shumerlar haqida ma’lumot berish, shumer mixxati haqida tushuncha berish, shumer epigrafik yodgorliklari haqida talabalarga tushuncha va tasavvur hosil qildirish.

IDENTIV O’QUV MAQSADLARI:

1.1. Shumerlar haqida tushuncha beradi.

1.2. Shumer kutubxonasining topilishi va uni o’rganilishi natijalarini tahlil qiladi.

1.3. Shumerlar mixxatining o’ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

1-savol bayoni:

Shumer o’lkasi baxtiyor Mesopotamiya («Ikki daryo oralig’i») erlarida joylashgan. Osiyoning ikki buyuk daryosi Dajla bilan Frotning suvi bilan ta’minlangan, unumdror lyoss tuproqli, serquyosh bu o’lkada qariyb olti ming yil burun qadimgi davrning eng buyuk tsivilizatsiyasi – shumer tsivilizatsiyasi vujudga kelgan.

Shumerlarni tarixchilar emas, balki tilshunoslar – lingvistlar kashf etgan. Ular mixxatning hususiyatlarini o’rgangan ekanlar, shu damgacha noma’lum bo’lgan qandaydir xalqning izini topganlar. Mixxat lavhalari (ularning soni Assiriya va Bobil shaharlari o’rni qazilgandan keyin ancha ko’paydi) harfli, bo’g’inli va rasmli yozuvning jimjimador aralashmasidan iborat edi. Poliglot-olimlar juda ko’p marta tekshirganlaridan keyin, mixxatdagi belgilarning bunchalik xilma-xilligi yozuv sistemasining uzoq taraqqiyoti natijasidir, deganfikrga keldilar. Mixxatni bobilliklar ham, assiriyaliklar ham yaratgan emas, bu qandaydir boshqa xalqning ijodidir degan taxminlarni ham aytdilar.

Yozuvlardan birida semit shohi Sargon (Ikki daryo oralig’i janubiy qismining qadimgi hukmdori) o’zini «shumerlar va akkadlar shohi» deb atagan. Shuning uchun ba’zi olimlar taxmin qilinayotgan xalqni shumerlar deb, boshqalari esa akkadlar deb atadilar. Konsullik vakili frantsuz E. de Sarzek 1877 yilda Ikki daryo oralig’idagi tepaliklardan birini qaziy boshlagan. Ko’p o’tmay, bir ajoyib

haykalchaga duch kelgan keyin jimjimador naqshlar bilan bezatilgan idish siniqlari, haykal va turli yozuvlar bitilgan sopol taxtachalar – lavhalar topgan.

Nippur shahri shumer hujjatlarini izlashga qiziqtiruvchi, undovchi kashfiyot bo'lgan. XIX asr oxirida amerikalik arxeologlar bu erdan mixxat bitilgan bir necha mingda lavha topganlar. Nippur taxtachalari – lavhalari 62 ta xonaga jo bo'lgan.

Shumerlar qadimgi kutubxonasining topilishi navbatdagi, deyarli eng kutilmagan kashfiyot bo'lgan: kutubxona shumerlarning qadimgi shahri – Shuruppakdan topilgan; rivoyatga qaraganda, Nux payg'ambar shu shaharda yashagan emish. 1902 yilda taniqli arxeologlarining bir guruhi, Ikki daryo oralig'ining hali mutlaqo o'rganilmagan, sirli va noma'lum rayoniga dadil ekspeditsiya uyushtirgan. Fara qishlog'ida arxeologlar mixxat bitilgan dastlabki sopol taxtachalarga duch keldilar. Keyin shumer mixxati bilan qidimiy yozuvlar bitilgan ko'plab taxtachalar kelib chiqdi. Bu Shumer kutubxonasi edi. Taxtachalar zax erdan chiqarib olindi, tozalandi, fotosuratga olindi, olovda pishirildi va puxta o'rab yashiklarga joylandi. Bunga sakkiz oy, ish natijalarini e'lon qilishga esa yigirma yil ketdi.

Olimlar shumer kutubxonasini seriyalarga ajratib tasnif qildilar. Birinchi seriyani – xo'jalik ishlariga oid tekstlar, ikkinchi seriyani maktabga tegishli tekst: hozirgi maktablardagi daftarlar rolini o'ynagan sopol taxtachalar tashkil etdi (bu materiallar shumer pedagogikasining yuksak darajada bo'lganligi, shumer o'quvchilari yozishni qanday o'rganganliklari haqida tasavvur berardi). Eng muhimi shuki, shumer kutubxonasi «arxaik mixxat belgilari» ning ro'yxatini tuzish imkonini berdi.

Ingliz L. Vulli Dafn etilgan Ur podsholari dahmalarining qoldiqlarini ochib ko'rdi. Ayol hokimlardan birining dahmasidan qimmatbaho buyumlari: oltin idishlar, malikaning bosh kiyimi topildi. Podshohlar qabridan topilgan yana bir narsa hammaning diqqatini o'ziga tortdi; bu burchaklari bir-biriga biriktirilgan va ikkita yon uchburchaklar yordamida mahkamlab qo'yilgan ikkita to'g'riburchakli

taxtachalardan iborat bayroq edi. Sadaflar va chig'anoqlar qadab naqshlar solingan bayroqlarda shumerlar hayotining turli ko'rinishlari tasvirlangan.

Agar arxeologik qazishlar o'tkazilmasa va juda ko'p xatlar bitilgan sopol lavhalarni L.Vulli xarobalar ostidan topib olmasa, bizga Ur shahri hech narsa eslatmagan bo'lardi. Topilgan lavhalar soni 20 mingdan ham ko'p. Ular katta bir kutubxona tashkil etdi.

D.Smitning ishlari shumershunoslikka munosib hissa bo'lib qo'shildi. Britaniya muzeyi ertulalarida Quyunjiq tepaligidan topilgan mashhur Ashshurbanipal kutubxonasiga mansub sopol lavhalarni o'rgana boshlaydi. D.Smit Mesopotamiya bo'ylab qilgan sayohatidan u 1873 yilning may oyida qaytdi. Etishmayotgan 380 ta lavhani topib keldi.

Ko'p ming yillar mobaynida mixxat o'zining uzoq va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Shu bugungacha tadqiqotchilar tomonidan juda ko'p mixxatli «sopol kitoblar» o'qib chiqilgan. Ular mixxatning rivojlanish tarixiga oid juda ko'p boy materiallar berdi. Har holda mixxatga zamin yaratgan, uni bunyodga keltirgan «otasi» to'g'risida, protoshumerlar yozuvi deb ataladigan yozuv to'g'risida ma'lumotlar hali kam. Ermitajda shumer belgilari bitilgan kichkina sopol lavha saqlanmoqda. Mutaxassislar bu lavhaning yoshi besh ming yildan ham ziyod deyishmoqda. Lavhada bor-yo'g'i to'rtta belgi chizilgan: Tiara, ayolni tasvirlovchi belgi, qo'l va to'siq (ihota). Bu – ma'lum tushunchalarni anglatuvchi o'ziga xos yozuv, belgilar esa – tipik ideogrammalardir. Mixxatning rivoji rasmlarni soddalashtirish yo'lidan borgan.

Shumer yozuvlaridagi belgilardan xo'jalik ishlariga doir ma'lumotlarni yozishda, mol-mulkni hisob-kitob qilishda, ya'ni soda va konkret hollarni qayd qilish uchun qo'llanilgan. Afsonalarni, tarixiy voqealarni, dostonlarni yozish uchun shumerlar turlicha talaffuz etiladigan ko'p ohangli belgilarni (bunda bir belgi ko'p tovush komplekslarini ifodalagan) va, aksincha, bir ohangli belgilarni qo'llana boshlaganlar (bunda bir bo'g'in bir necha belgi orqali ifodalangan). Vaqt o'tishi bilan belgilarning tashqi ko'rinishi ham o'zgargan, rasmlar tobora ko'proq shartli

tu solgan. Mixxat sopolga bitiladigan yozuv sifatida qaror topgach, bu belgilar tosh, shisha, metall kabi qattiq materialga o'yib yozila boshlangan.

Assiriylar mixxat sistemasini soddalashtirganlar: undagi belgilar sonini kamaytirganlar va o'z qo'shimchalarini kiritgan.

MUHOKAMA UChUN SAVOLLAR:

1. Shumer kutubxonasining topilishi olimlarga qanday imkoniyatlar ochib berdi?

2. Ashshurbanipal kutubxonasi lavhalarini kim deshifrovka qildi va fanga qanday yangilik kiritildi?

3. Shumer mixxati harfli yozuv darajsigacha ko'tarildimi? Nima sababdan?

Mavzuni o'rganishda quyidagi adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Drachuk V. Yozuvlar – o'tmish sirlari shohidi.- T.:O'zbekiston, 1980
2. Otaev U. Epigrafika fanidan o'quv-uslubiy majmua.- Guliston, 2005

Shunday qilib, jahon tarixidagi ilk tsivilizatsiyalarning har tomonlama taraqqiy etishi natijasida davlat uyushmalari va boshqaruv tizimi ham taraqqiy eta boshlagan. Tadqiqotlar natijasida topilgan ko'plab topilmalar qadimgi tsivilizatsiya markazlari o'rtasida o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar mavjud bo'lganligidan alolat beradi. Ushbu munosabatlarda O'rta Osiyo hududlarida yashagan qadimgi aholining ham o'z o'rni borligi shubhasizdir. Shuning uchun ham qadimgi tsivilizatsiyalar tarixini yanada chuqurroq o'rganib, tadqiq etib, ushbu o'zaro aloqalarni, ularning mohiyatini aniqlash tarixchi va arxeolog olimlar oldidagi navbatdagi muammo hisoblanadi.

ADABIYoTLAR RO'YXATI:

1. Prezident asarlari va me'yoriy hujjatlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.:Sharq, 1998
2. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari – T.:O'zbekiston, 1993.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.- T.:O'zbekiston, 1998
4. Davlat ta'lim standartlari. T., 2008

2. O'zbek tilidagi darslik, kitoblar va monografiyalar

5. Drachuk V. Yozuvlar – o'tmish sirlari shohidi.- T.:O'zbekiston, 1980
6. Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. -T.,1992.
7. Otaev U. Epigrafika fanidan o'quv-uslubiy majmua.- Guliston, 2005
8. Eshov B. Tsivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. – T.:Zar qalam, 2004. 56 b.
9. Qadimgi dunyo tarixi. – T., 2007

3. Ilmiy to'plamlar, jurnallardagi maqolalar:

10. Dyakonov I.M. Problemo' Vavilonskogo goroda. g'g' Gorod i torgovlya na drevnem Blijnem Vostoke. - Drevniy Vostok (1).- Erevan, 1973.
11. Lisitso'na G.N. Kulturno'e rasteniya Blijnego Vostoka i yuga Sredney Azii v VIII-V to's. do n.e. G'G' SA. 1970. №3.
12. Masson V.M. Problemo' neoliticheskoy revolyutsii v svete novo'x danno'x arxeologii. G'G' VI. 1970. №6
13. Masson V.M. Pervo'e zemledeltso' Mesopotamii. G'G' VDI. 1971. №3
14. Merpert N.Ya., Munchaev R.M. Rannezemledelcheskie poseleniya v Severnoy Mesopotamii. G'G'SA. 1971. №3
15. Munchaev R.M., Merpert N.Ya., Bolshakov O.G., Bader N.O., Bashilov V.A., Gulyaev V.I. Raskopki rannezemledelcheskix

pamyatnikov na severe Iraka. G'G' Arxeologicheskie otkro'tiya 1971. – M., 1972.

16. Munchaev R.M., Merpert R.Ya., Bolshakov O.G. i dr. Irakskaya ekspeditsiya. G'G' Arxeologicheskie otkro'tiya 1972 goda. – M., 1973
17. Munchaev R.M., Merpert R.Ya., Bader N.O. i dr. Issledovaniya irakskoy ekspeditsii. G'G' Arxeologicheskie otkro'tiya 1973 goda.- M., 1974.
18. Munchaev R.M., Merpert R.Ya., Bader N.O. i dr. Raskopki v Mesopotamii. G'G' Arxeologicheskie otkro'tiya 1974 goda.- M., 1975.
19. Munchaev R.M., Merpert R.Ya., Bader N.O. i dr. Sovetskaya ekspeditsiya v Mesopotamii. G'G' Arxeologicheskie otkro'tiya 1975 goda.- M., 1976.
20. Munchaev R.M., Merpert R.Ya., Bader N.O. i dr. Issledovaniya irakskoy ekspeditsii 1976 g. G'G' Arxeologicheskie otkro'tiya 1976 goda.- M., 1977.
21. Munchaev R.M., Merpert R.Ya., Bader N.O. i dr. Issledovaniya v Mesopotamii. G'G' Arxeologicheskie otkro'tiya 1977 goda.- M., 1978.
22. Munchaev R.M., Merpert R.Ya., Bader N.O. i dr. Ekspeditsiya v Mesopotamii. G'G' Arxeologicheskie otkro'tiya 1978 goda.- M., 1979.
23. Semenov S.A. Keramicheskiy kompleks iz drevnego poseleniya Eredu v Irake.G'G' SA. 1965. №3.
24. Struve V.V. K probleme chastnogo zemlevladeniya v Shumere.g'g' VDI. 1959. № 4.

4.Internet resurslari:

25. www.kulichki.ru

26. www.ziyoNET.uz
27. www.google.uz
28. www.wikipedia.ru
29. www.middleeast.narod.ru
30. www.bankreferatov.ru G'Beitrage zur socialen Etrubler des Alter Norden Asiens- Berlin, 1971
31. www.bankreferatov.ruG'Mesopotamiya

5. Rus tilidagi adabiyotlar:

32. Avdiev V.I. Istoriya Drevnego Vostoka. - M., 1970.
33. Arxeologiya Starogo i Novogo Sveta. – M., 1966
34. Afanaseva V.K. i dr. Iskusstvo Drevnego Vostoka.- M., 1971
35. Vasilev L. Istoriya religiy Vostoka.- M., 1988.
36. Dandamaev M.A. Rabstvo v drevney Vavilonii UP-ShU vv do n.e. -M.,1974
37. Drevnie tsivilizatsii.- M.:Mo'sl, 1989
38. Drevniy mir v pamyatnikax ego pismennsoti. Sost. V.A.Jarinov, N.M.Nikolskiy i dr. – M., 1915. Ch.1 Vostok
39. Dyakonov I.M. Narodo' drevney Peredney Azii.- EPS. 1.- M.,1958.
40. Dyakonov M.M. Obhestvenno'y i gosudarstvenno'y stroy drevnego Dvurechya.- M., 1959.
41. Zarojdenie drevneyshix klassovo'x obhestv i pervo'e ochagi rabovladelcheskoy tsivilizatsii.(Pod red.Dyakonova N.M.) - M.,1983
42. Istoriya Drevnego Vostoka. Chast 1. Mesopotamiya. Pod red I.M.Dyakonova.- M., 1983
43. Istoriya Drevnego Vostoka.- M.:Vo'sshaya shkola, 1988
44. Iskusstvo Drevnego Vostoka.- M., 1982.
45. Klengel-Brandt E. Puteshestvie v drevniy Vavilon.- M.,1979

46. Klima I. Obhestva i kultura Drevnego Dvurechya. - Praga, 1947.
47. Klochkov I.S. Duxovnaya kultura Vavilonii.- M., 1983.
48. Kramer S. Istoriya nachinaetsya v Shumere.- M., 1965.
49. Lipin L.A. Drevneyshie zakono' Mesopotamii.- P.S. 1954.
50. Lloyd S. Arxeologiya Mesopotamii. — M.: Nauka (GRVL), 1984.
51. Malaya istoriya iskusstv.- Moskva-Drezden, 1976 (statya V.K.Afanasevoy)
52. Masson V.M. Srednyaya Aziya i Drevniy Vostok. – M.-L., 1964
53. Masson V.M. Pervo'e tsivilizatsii. - kn. Drevnie kulturo' Irana.- M., 1989.
54. Masson V.M. Srednyaya Aziya i Drevniy Vostok. – M.-L., 1964
55. Mate M.E., Afanaseva V.K., Dyakonov I.M., Lukonin V.G. Iskusstvo drevnego Vostoka. Pamyatniki mirovogo iskusstva.- M., 1968.
56. Mellart Dj. Drevneyshie tsivilizatsii Blijnego Vostoka. – M.:Nauka, 1982
57. Munchaev R.M., Merpert R.Ya. Rannezemledelcheskie poseleniya Severnoy Mesopotamii. – M., 1981
58. Oppenxeym A.L. Drevnyaya Mesopotamiya. Portret pogibshey tsivilizatsii. – M., 1980.
59. Oppenxeym A. Drevnyaya Mesopotamiya. Portret pogibshey tsivilizatsii G' A. Leo Oppenheim G' Izd. 2-e. — M.: Nauka (GRVL), 1990.
60. Reder D.G., Cherkasova E.A. Istoriya drevnego mira.- M., 1985
61. Seton Lloyd. Arxeologiya Mesopotamii.- M., 1984.
62. Struve V.V. Istoriya Drevnego Vostoka. – M.,1940
63. Struve V.V. Borba s rabstvom - doljnichestvom v Vavilonii i Palestine. - P.S., 1958.
64. Turaev B.A. Istoriya Drevnego Vostoka- L., 1935-1936

65. Tyumenkov A.I. Gosudarstvennoe xozyaystvo drevnego Shumera.- M.-L., 1956
66. Flittner N.D. Kultura i iskusstvo Dvurechya i sosednix stran. M.-L.,1958
67. Xrestomatiya po istorii Drevnego Vostoka. (Pod red. Struve V.V., Redera D.G.) - M.,1963.
68. Xrestomatiya po istorii Drevnego Vostoka. – M., 1980
69. Xrestomatiya po istorii Drevnego mira. Pod red. V.G.Boruxovicha. – Saratov, 1987.
70. Chayld G. Drevneyshiy Vostok v svete novo'x raskopok. – M., 1956
71. Chernikovskiy E.M. Vseobhaya istoriya gosudarstva i prava. -M., 1973.

ИЛОВАЛАР

G L O S S A R I Y

Qadimgi Mesopotamiya tarixiga oid atamalar

Akkad – Mesopotamiyaning shimolidagi qadimgi davlat

Amoriylar - Suriyada yashagan qadimgi qabila, ular “sharq bolalari” deb atalganlar

Assiriya - Mesopotamiyaning shimolida joylashgan mamlakatlardan biri. Ossuriya deb ham ataladi. Eng qadimgi, O’rta, Yangi

Ossur podshohligi bosqichlarini bosib o'tgan.

Bobil – qadimgi Mesopotamiyadagi shahar. So'zning lug'aviy ma'nosi "Xudo darvozasi" demakdir.

Bobil podsholigi – er.avv. 1822 yildan er.avv. 1595 yilgacha hukm surgan Davlat

Zikkurat - 3,6,7 qavatli zinapoyali minora, bu binolar maktab, ibodatxona, osmon jismlarini, oy va quyoshni kuzatuvchi rasadxona vazifasini bajargan. Tavrotda "Bobil minorasi" deb eslatiladi.

Kassit - Zagros tog'lari ortida yashovchi ko'chmanchi qabila, Mesopotamiyada er.avv. 1595 yildan boshlab hukmronlik qilgan.

"La'l yo'li"-Mesopotamiyani Badaxshon bilan bog'lagan qadimiy karvon va savdo yo'li

Mesopotamiya – Frot va Dajla daryolarining o'rta va quyi qismi, Ikki daryo oralig'idagi hududlar, hozirgi Iroq Respublikasi hududiga to'g'ri keladi.

Mixxat - Mesopotamiyada kashf etilgan ponasimon shakldagi yozuv

Mesopotamiya shahar-davlatlari – Uruk, Eredu, Larsa, Lagash, Isin, Kish, Sippor, Nippur

Tamkarlar - Mesopotamiyada qo'shni shaharlararo savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanuvchi kishilar

"To'rt iqlim podshosi" – Mesopotamiya podsholari o'zlarini shu nom bilan e'lon qilishgan

Xammurapi – Bobil podsholigida er.avv. 1792-er.avv. 1750 yillarda hukmronlik qilgan podsho. U o'z davrining mashhur siyosiy va harbiy arbobi bo'lgan

Xammurapi qonunlari –Bobil podsholigidagi qonunlar to'plami, ular Xammurapi tomonidan mixxat bilan katta bazalt tosh ustuni sathiga o'yib yozilgan. U 247 moddani o'z ichiga

kiritgan.

Shumer – Mesopotamiyaning janubidagi qadimgi davlat

Shumer yozuvi - Er.avv. 4 mingyllikda Shumerda kashf etilgan suratli yozuv bo'lib, unda aytilmoqchi bo'lgan fikr rasm bilan ifoda etilgan


ENG QADIMGI DAVRDAN MILODDAN AVVALGI III MINGYILLIK OXIRIGACHA MESOPOTAMIYA
SUBARTU
XURRITLAR
EBLA
AMORIYLAR
Miloddan avvalgi XXI—XX asrlar
Nineviya
Arbeli
Ashshur
Gasur
KUTEYLAR
Miloddan avvalgi XXII—XXI asrlar
LULLUBEYLAR
Mari
UPI-AKSHAK
Eshnunna
Bagdod
Tutub
SIPPAR
AKKAD
KISH
Der ?
Bobil
Nippur
Adab
Isin
SHURUPPAK
Umma
LAGAQSH
URUK
Larsa
UR
EREDU
SUZA
Avan
Adamdun
Fors qo'ltig'i
Mesopotamiyadagi sug'oriladigan yerlar
ELAM Mamlakat va joy nomlari
Akkad podsholari bosqinchilik yurishlarining asosiy yo'nalishi
Elamliklar istilosining yo'nalishi
Mesopotamiyaga qo'shni qabilalar bostirib kirishining yo'nalishi
Ilk sulolalar davrining eng muhim markazlari (Mil avvalgi III ming yillikning birinchi yarmi)
Yirik davlatlarning markazlari (II ming y. ik. y.)
Boshqa qadimgi aholining turar joylari
Ba'zi shaharlarning taxminiy joylari
Hozirgi zamon aholi manzillari
Tarixiy qirg'oq chiziqlari va Frot va Dajla daryolarining quyilish joylari
Masshtab 1 : 7 500 000


MILODDAN AVVALGI XIII-VII ASRLARDA OSSURIYA PODSHOLIGI
KIMMERIYLAR
Kanes
GURGUM
Arman tog'lari
URARTU
SHUPRIA
XUBUSHKIA
TUSHPA
Van k.
KUMMUX
Marash
KILIKIYA
Tars
Karxemish
605
Xarran
609
DUR-SHARRUKIN
NINEVIYA
612
KALXA
ASHSHUR
614
MUSASIR
Urmiya k
MANNA
MIDIYA
EKBATAN
ARIBLAR
Karkar
853
Arvad
Tadmor
Damashq
732
Tir
SAMARIYA
722
QUDDUS
701
MOAV
EDOM
O'RTAYER DENGIZI
SKIFLAR
KASPIY DENGIZI
Elburs tog'lari
KASSITLAR
ELLIPI
OROMEYLAR
Dajla Der
721
Kutu
689
Bobil
SUZA
639
ELAM
ANSHAN
Ayagir
Fors qo'ltig'i
Ossuriyaning mil. av. XIII asrdagi yerlari
Ossuriyaning mil. av. VII asr o'rtalaridagi yerlari
MUSASIR Qabila ittifoqlari va davlatlar
ELAM Mil. avv. VII asr o'rtalarida ossuriyaga qaram bo'lgan davlat va qabilalar
ARIBLAR Qabila nomlari
SKIFLAR Savdo yo'llari
Ko'chmanchi qabilalar hujumi
Jang bo'lgan joylar va sanalar
TUSHPA Qadimgi davlatlarning poytaxtlari
Qadimgi shaharlar
Tir Mustaqil shaharlar
Bobil O'z-o'zini idora qilgan shaharlar